

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QISHLOQ VA SUV XO'JALIGI VAZIRLIGI



SAMARQAND QISHLOQ XO'JALIK INSTITUTI

Iqtisodiyot va boshqaruv fakulteti

«TASDIQLAYMAN»

Iqtisodiyot va boshqaruv
fakulteti dekani, i.f.n., dotsent

F.B.Axrоров

«___» _____ 2015 yil

«Yaylov chorvachiligi va hayvonlarni oziqlantirish texnologiyasi»
kafedrasi 5420100 - Fermer xo'jaligini boshqarish va yuritish
ta'lim yo'nalishi bo'yicha

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Mavzu: «Sigirlarni yaylovlarda boqishni ularning mahsuldorligiga va
xo'jalikning iqtisodiy samaradorligiga ta'siri» (Nurobod tumani
fermer xo'jaliklari misolida)

Bajardi:

4-bosqich talabasi

Niyozov Otamurod

Ilmiy rahbar: katta o'qituvchi

A.J.Chalaboyev

Ilmiy maslahatchi: dotsent

D.Raxmonov

Bitiruv malakaviy ish muhokama
qilindi va himoyaga ruxsat berildi

Kafedra mudiri, dotsent

_____ B.S.Yaxyayev

«___» _____ 2015 yil

SAMARQAND – 2015

Samarqand qishloq xo'jalik instituti Iqtisodiyot va boshqaruv fakulteti
5420100 - Fermer xo'jaligini boshqarish va yuritish ta'lim yo'nalishi 4-bosqich
talabasi Niyozov Otamurodning «Sigirlarni yaylovlarda boqishni ularning
mahsuldorligiga va xo'jalikning iqtisodiy samaradorligiga ta'siri» (Nurobod
tumani fermer xo'jaliklari misolida) mavzusida bajarilgan bitiruv malakaviy ishiga

Ruxsatnoma

Mazkur bitiruv malakaviy ishi «Yaylov chorvachiligi va hayvonlarni
oziqlantirish texnologiyasi» kafedrasining 2015 yil «__» __ bo'lgan yig'ilishida
muhokama qilinib, __-bayonnoma bilan Davlat Attestasiya hay'atida himoya
qilishga tavsiya etildi.

Kafedra mudiri, dotsent

B.S.Yaxyayev

Ilmiy rahbar: katta o'qituvchi

A.J.Chalabayev

MUNDARIJA

	Kirish	4
1	Mavzuni nazariy asoslash va o'rganilgan adabiyotlar sharhi	8
2	Fermer xo'jaliklarining resurs potentsiali va ulardan foydalanish	13
2.1.	Fermer xo'jaliklarining yer resurslari va ulardan foydalanish	13
2.2.	Fermer xo'jaliklarining mehnat resurslari va ulardan foydalanish	17
2.3.	Moddiy resurslar va ulardan foydalanish holati	22
3.	Sigirlarni yaylovlarda boqishni ularning mahsuldorligiga va xo'jalikning iqtisodiy samaradorligiga ta'sirining hozirgi holati tahlili	29
3.1.	Hayvonlarni yaylovda saqlash usullari	29
3.2.	Yaylov tiplari va ularning oziqabop o'simliklari	41
3.3.	Yaylovda oziqa zahiralarini aniqlash uslublari	53
4.	Sigirlarni yaylovlarda boqishni ularning mahsuldorligiga va xo'jalik iqtisodiy samaradorligini oshirish yo'llari	56
4.1.	Sigirlarni yaylovlarda boqishning ular mahsuldorligiga tasiri	56
4.2.	Mollarni yaylovlarda boqishning iqtisodiy samaradorligi	60
5.	Sigirlarni yaylovlarda boqishda mehnat muhofazasini tashkil etish	65
	Xulosa va takliflar	68
	Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	70

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov mamlakatimizni 2014 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2015 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yunalishlariga bag'ishlangan Vazirlar mahkamasining majlisidagi ma'ruzasida mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti 8,1 foiz, sanoat ishlab chiqarish hajmi 8,3 foizga, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi 6,9 foiz, kapital qurilish 10,9 foiz, chakana savdo aylanmasi hajmi 14,3 foizga oshdi. Ishlab chiqarilgan mahsulotlarning qariyb 70 foizini yuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan tayyor tovarlar tashkil etdi deb ta'kidladi.

Qishloq xo'jaligi sohasida qo'lga kiritilgan ulkan marralar, avvalo, fermerlarimiz, qishloq xo'jaligi mutaxassislari va qishloq taraqqiyoti bilan bog'liq tarmoqlarda mehnat qilayotgan yuz minglab yurtdoshlarimizning fidokorona mehnati va tajribasining samarasidir. 2014 yilda qishloq mehnatkashlari qanday og'ir sinovlarga duch kelganini hammamiz bilamiz. Sovuq kunlar odatdagidan ko'proq bo'ldi. Bu ayniqsa, bahor oylarida yanada ko'proq sezildi. Yozdagi suv tanqisligi, venetatsiya davridagi kuchli shamol va bo'ronlar, kuzning ancha erta va salqin kelgani soha mehnatkashlari uchun ko'plab jiddiy muammolar tug'dirdi. Ana shunday qiyinchiliklarga qaramasdan, dehqon va fermerlarimizning mehnati, zamonaviy agrotexnologiyalarni joriy etish hisobidan 3 million 400 ming tonnadan ziyod paxta, mamlakatimiz qishloq xo'jaligi tarixida birinchi marta 8 million 50 ming tonnadan yuksak g'alla xirmoni bunyod etildi.

Zamonaviy agrotexnologiyalarni joriy etish va fermerlarni yuqori unum bilan ishlaydigan qishloq xo'jaligi texnikasi bilan ta'minlash hisobidan qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida intensiv usullarga o'tish ushbu sohani barqaror va samarali rivojlantirishda eng muhim yunalish hisoblanadi.

Respublikamiz aholisini sut, go'sht, tuxum va boshqa mahsulotlariga bo'lgan talabini qondirish chorvachilikning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Qishloq xo'jaligi jumladan chorvachilikni rivojlantirish maqsadida Respublika Prezidentining 2006 yil 23 martdagi PQ 308 - sonli "Shaxsiy yordmchi, dehqon va fermer xo'jaliklarida chorva mollarini ko'paytirishni rag'barlantirish chora-

tadbirlari to'g'risida"gi, 2008 yil 21 apreldagi PQ 842 - sonli "Shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo'jaliklarida chorva mollari ko'paytirishni rag'batlantirishni kuchaytirish hamda chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishni ko'paytirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Respublika Prezidenti I.A.Karimov "Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etish yo'llari va choralari" kitobida davlatimiz rahbari ko'pgina daliliy va har tomonlama isbot qilingan ma'lumotlarni keltirib, moliyaviy inqirozni O'zbekistonni chetlab o'tishiga ta'sir qilgan omillar to'g'risida to'xtalib "O'zbekiston qabul qilgan o'ziga xos islohat va modernizatsiya modeli orqali biz o'z oldimizga uzoq va davomli milliy manfaatlarimizni amalga oshirish vazifasini qo'yar ekanmiz, eng avvalo "shok terapiyasi" deb atalgan usullarni bizga chetdan turib joriy etishga qaratilgan urinishlardan, bozor iqtisodiyotini o'zini o'zi tartibga soladi degan o'sha jo'n va aldamchi tasavvurlardan voz kechdik" deb ta'kidlagan.

Chorvachilik xalq ho'jaligining muhim tarmoqlaridan biri bo'lib, aholining is'temol qiladigan sut, go'sht, yog', tuxum, asal kabi oziq - ovqat mahsulotlari bilan engil sanoatni esa jun, teri, mo'yna, par, pat, pilla va boshqa mahsulotlar bilan ta'minlaydi.

Chorvachilik sohasida ham iqtisodiy islohatlar o'tkazila boshlandi va shu kungacha ushbu jarayon davom etib takomillashib kelmoqda. Shuning natijasida chorvachilikni bozor iqtisodiyoti sharoitida rivojlantirishni huquqiy asoslari yaratildi. Shunga misol tariqasida 1995 yildagi "Naslchilik to'g'risida"gi, 1996 yildagi "Seleksiya to'g'risida"gi davlat qonunlarini, ayniqsa shuni alohida qayd qilish kerakki sohani barqaror rivojlantirish borasida Respublika Prezidentining № 308 va 842 - sonli qarorlari dasturi amal bo'lib kelmoqda.

Hozirgi kunda olingan ma'lumotlarga ko'ra mamlakatimizda 30 milliondan ortiq aholi yashamoqda. Aholi sonining yildan-yilga oshib borishi o'z navbatida ularning oziq - ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabini tobora oshib borishiga olib keladi.

Bu talablarni qondirishda arzon, sifatli chorvachilik mahsulotlarini ko'paytirish muhim ahamiyatga ega.

Keyingi yillarda chorvachilik bilan shug'ullanadigan fermer xo'jaliklariga raqobatlashib ishlash uchun bir qator xuquqiy shart sharoitlar yaratib berildi. Hozirgi kunda qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish samaradorligini yanada oshirish muhim ahamiyatga ega ekanligini inobatga olib chorvachilik bo'yicha ishlayotgan fermer xo'jaliklariga ajratilgan er maydonlarini yanada optimallashtirish va undan samarali foydalanish mavzuning dolzarbligini bildiradi.

Prezident I.A.Karimov o'z ma'ruzasida yurtimizda ekin maydonlarini optimallashtirish va qishloq xo'jaligi ekinlarini rayonlashtirish borasida har tomonlama puxta o'ylangan siyosat olib borilayotganligi eng muhim xomashyo va eksportbop mahsulot bo'lmish paxta etishtirishning nisbatan barqaror hajmini saqlagan holda, boshqa qishloq xo'jaligi mahsulotlari etishtirishning bir necha barobar ko'paytirish imkonini berdi. Eng muhimi, xalqimizni oziq-ovqat mahsulotlari bilan to'liq ta'minlashga zamin tug'dirdi, kerak bo'lsa, ularni chet mamlakatlarga eksport qilishga imkon bermoqda. Xususan, g'alla etishtirish 2000 yilga nisbatan 2 barobar, kartoshka - 3,1 marta, sabzovat - 3,2 barobar, uzum - 2 marta, go'sht va sut - 2,1 karra, tuxum - 3,4 barobar oshdi deb ta'kidlagan.

Hozir Respublikamiz bo'yicha 89000 dan ortiq fermer xo'jaliklari bo'lib, shundan 13000 gi chorvachilikka ixtisoslashgandir. Respublikamizda har ming kishiga 120 boshdan sigir to'g'ri keladi, bu ko'rsatkich Rossiyada 66, AQSH da 40, Angliyada 44 tashkil etadi. Albatta bu ko'rsatkich bizda yaxshi, ammo yuqorida ta'kidlangan mamlakatlarda bir bosh sigirdan sog'ib olingan sutning o'rta miqdori bizdan ko'ra 4-6 marta yuqori.

Respublikamizda sut ishlab chiqarishni ko'paytirish sigirlarning mahsuldorligini oshirish bilan uzviy bog'liqdir. Bizda o'rchitilayotgan qoramollarning sut mahsuldorligini oshirishda zoogigienik qoidalarga rioya qilish, to'la qiymatli oziqlantirish hamda yaylovlardan samarali foydalanishni o'rganish bitiruv malakaviy ishining dolzarbligini belgilaydi. Malakaviy ishni bajarish referativ tarzda olib borildi.

Jumladan chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishni keskin oshirish, mustahkam oziqa bazasini yaratish eng muhim vazifalardan biridir. Buning uchun chorva tuyoq sonini ko'paytirish va mahsulot ishlab chiqarishni fermerlik negizi asosiga o'tkazish, shuningdek, almashlab ekishni to'g'ri yo'lga qo'yish chorvachilikni to'liq mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish kabi vazifalar qo'yilgan.

Mustaqil davlatimiz bozor munosabatlarining yangi bosqichlarini o'z boshidan kechirayotgan bir davrda chorvachilikda olib borilayotgan naslchilik va seleksiya ishlarining ahamiyatini kundan kunga oshirish va sermahsuldor podalarni yaratish masalasi muhim ahamiyatga egadir.

Barcha chorvachilik fermer xo'jaliklarida mustahkam oziqa bazasini yaratish bilan birga hayvon zotlariga bo'lgan e'tibor oshirilishi zarur. Buning uchun respublikamizda sut va go'sht yo'nalishidagi zotlarni takomillashtirish kerakligini hisobga olish muhimdir.

1. MAVZUNI NAZARIY ASOSLASH VA O'RGANILGAN ADABIYOTLAR SHARHI

Istiqlol yillarida xalq xo'jaligining barcha javxalarida shu jumladan mamlakat qishloq xo'jaligida chuqur iqtisodiy isloxatlar o'tkazildi va bu jarayon bugungi kungacha daom etib, ishlab chiqorishni jaxon andozalari talabiga mos ravishda takomillashishi uchun asosiy omil hisoblanmoqda.

Shuni aloxida ta'kidlash lozimki, 2003-2004 yillardan e'tiboran respublika qishloq xo'jaligi sohasida mavjud bo'lgan jamoa va shirkat xo'jaliklari asta - sekinlik va bosqichma - bosqich fermer xo'jaliklariga aylantirila boshlandi va mamlakat agrar sektori uchun muhim bo'lgan bu jarayonning huquqiy asosi yaratildi. Xususan, 2000 yil 25 mayda qabul qilingan «Tadbirkorlik faolligi yerkinligining kafolatlari to'g'risida»gi 1998 yilda qabul qilingan «Fermer xo'jaligi to'g'risida» va «Dehqon xo'jaligi to'g'risida» gi Davlat qonunlarini, Respublika Prezidentining 2000 yil 4 martdagi «Fermerlarni xususiy tadbirkorlarni hamda kichik biznes boshqa subyektlarni qo'llab - quvvatlash chora - tadbirlari to'g'risida» gi PQ - 75 sonli, «Qishloq hujalingini ishlab chiqarishda va shartnomaviy munosabatlarini takomillashtirish va majburiyatlarini bajarishi uchun tomonlarning javobgarligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida» gi PQ-383 sonli qarorlari hamda 2003 yil 24 martdagi «Qishloq xo'jaligida isloxatlarini chuqurlashtirishning yeng muhim yo'nalishlari to'g'risida» gi 3226 – sonli, va 2003 yil 27 oktyabrdagi «2004 - 2006 yillarda fermer xo'jaligini rivojlantirish konsepsiyasi to'g'risida»gi 3342 sonli farmonlarini, bulardan tashqari, Respublika Vazilar Maxkamasining ko'plab qarorlarini keltirish mumkin. .

Abruyev I, Urdushayev X. Ozuqa rasionini optimallashtirish. Uslubiy qo'llanma. - Samarqand, 1997. Ushbu uslubiy qo'llanmada ozuqa rasionini optimallashtirish masalasi sog'in sigirlar uchun rasion tuzishga bag'ishlangan bo'lib, ushbu masalaning strukturaqiy, sonli matematik modeli tuzilgan va kompyuterda PER dasturi yordamida yechilgan. Shuningdek bir qancha variantlarda yechish uchun masalalar keltirilgan.

Mamlakatimizni bozor munosabatlariga o'tishi, uning hamjamiyatidagi o'rni, iqtisodiyotning barqaror bo'lishiga qaratilgan. Bu kitobda iqtisodiyotining asoslari savol va javoblar asosida yoritilgan.

Bogdanov G.A. Kormleniye selskoxozyaystvennx jivotnx. Uchebnik. M.Agropromizdat, 1999. Bu kitobda ozuqalar to'yimlilik, hayvonlarni yetarlicha ozuqlantirish, ozuqalarni standartlashtirish va sinflarga bo'lish, ozuqlantirishni samarali tashkil etish va buning uchunoxborot kommunikatsiya va matematik modellashtirish usullaridan foydalanish masalalari keltirilgan. Ushbu kitobda ozuqa turlari va ulardan to'yimli moddalar miqdori keltirilgan. Shuningdek turli xayvonlar uchun rasion keltirilgan.

Berkli Xill. Iqtisodiyotga kirish. –T.: Mehnat, 1998. Bu darslik qishloq xo'jaligi oliy UKV yurtlari va kollej talabalariga mo'ljallangan bo'lib unda iqtisodiyotga kirishning oddiy samarali yshli bayon qilingan.Bu kitob 10 bobdan iborat. <Ishlab chiqarish iqtisodiyoti> deb nomlangan. 5 bobdagi <Omil-mahsulot munosabatlarini optimallashtirish usullarini birlashtirish> mavzularidan foydalandik.

Bakett M. Fermer xujaligini tashkil qilish va boshqarish. –T.: Mehnat, 1998.

Bu kitobda Angilyadagi qishloq xo'jaligi rivojlanishi qonunlari fermerlik faoliyatlari yoritilgan. Keltirilgan malumotlar real misollar bilan mustaxkamlangan. Asar 12 bobdan iborat. Jumladan uning 9 – bobi “Xo'jalikning asosiy bo'limlari foydasiga tasir etuvchi omillar” deb nomlangan.

Jo'rayev F. Qishloq xo'jalik korxonalarida ishlab chiqarishni tashkil etish. Darslik. – T.: Istiqlol, 2004. -343 bet. Mazkur darslikda qishloq xo'jaligi korxonalarida ishlab chiqarish munosabatlarini bozor tizimi asosida shakillantirishning dolzarb masalalari, turli xil mulk shaklidagi korxonalarni tashkiliy-xo'jalik asoslari, xususan fermer xo'jaliklarini yangi konsepsiya asosida shakillantirish,ishlab chiqarishni tashkil etishda ijara munosabatlari va oi izmlarni takomillashtirish, dexqonchilik va chorvachilik tarmoqlarini tashkiliy-iqtisodiy asoslari,biznes rejalashtirishni takomillashtirish va shunga o'xshash dolzarb muammolarni o'rganishing nazariy va amaliy asoslari aks ettirilgan.

Ushbu darslikning chorvachilik darsliklarini tashkil etishning ilmiy asoslarini o'z ichiga olgan. III bo'limdagi 6 bobni olib ko'radigan bo'lsak unda chorvachilik tarmoqlarini shakillantirish bir tizim sifatida o'z aksini topib, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning ilmiy asoslari keng va tushunarli qilib bayon qilingan. Fermer xo'jaliklarining fermalarini qayta shakillantirish va barqaror taraqqiy ettirish bilan nodavlat chorvachilikni jadallashtirish va ixtisoslashtirishning asosiy yo'llari ko'rsatilib berilgan. Fikrimizcha professor F.Jo'rayevning mazkur darsligida xukumatimiz bozor iqtisodiyoti talablari asosida chorvachilikni rivojlantirish nazariy va amaliy jixatdan to'la o'zida aksini topgan.

Ismoilov A., Murtazayev O. Qishloq xo'jalik iqtisodiyoti. –T.: Moliya, 2005.

Ushbu darslik qishloq xo'jalik oliy o'quv yurtlari talabalariga mo'ljallangan bulib, bozor iqtisodiyotiga utish davridagi muxim iqtisodiyot muammolarni o'z ichiga qamrab olgan. Darslik 4 bulimdan iborat bulib 1-chi bulim qishloq xo'jalik resruslari va ulardan samarali foydalanish masalalariga bag'ishlangan. 2-chi bulim esa qishloq xo'jalik resruslari, moddiy texnika resruslari, investisiya va kapetal qo'yimalarga bag'ishlangan. 3-chi bulimda esa qishloq xo'jalik ishlab chiqarishning samaradorligini masalari ochib berilgan. 4-chi bulimda usimlikchilik va chorvachilik tarmoqlari samaradorligini oshirish imkoniyatlari keltirilgan bulib, bbarcha asosiy tarmoqlar bo'yicha bu masala bayon etilgan. 5-chi bulim 29-30-31-32-33-34- boblari chorvachilik tarmoqlari samaradorligini oshirishga bag'ishlangan.

Sanayev G'.N. Fermer xo'jaliklarida sut-gusht mahsulotlari xarajatlarini hisobga olish, ularning tannarxni hisoblashgni takomillashtirish. Monografiya. – T.: Fan, 2007. - 119 bet.

Ushbu monografiya kirish, 3 bob, xulosa va takliflar, foydalanilgan adabitlar ro'yxati va ilovalar tashkil etgan. Mazkur monografiyada qoramolchilik tarmog'ida sut—go'sht mahsulotlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashtirilgan fermer xo'jaliklarida mahsulotlarni ishlab chiqarish xarajatlari hisobi va ularning tannarxini aniqlashning metodologik va uslubiy jixatlari respublikamizda istiqbolli

xo'jaliklardan bo'lgan fermer xo'jaliklari misolida keng va oddiy tilda yozilganligi bilan bizni ushbu monografiyani chuqur o'rganishimizga sabab bo'ldi.

Monografiyaning birinchi bobida agrosanoat majmuida turli mulk shakillariga asoslangan xo'jalik yurituvchi subyektlar vujudga kelishinig nazariy asoslari, amaliy ahamiyati keng yoritilgan, jumladan, "Iqtisodiy isloxlarni amalga oshirishda birinchi o'rinda mulkiy munosabatlar bo'lib bunda barcha ishlab chiqarish va boshqa sohalarda tovar-pul munosabatlarining asosiy negizi sifatida qaraladi". Chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda turli yo'llardan foydalanishni maqsad etdik. Bizga malumki, Respublikamizdagi fermer xo'jaliklari mahsulotlarini, jumladan chorvachilik mahsulotlarining salmoqli qismini ishlab chiqarmoqdalar, eng muximi esa mahsulotlar sifati yaxshi bo'lishi bilan birga barcha chorva mollarining mahsuldorligining oshirishga erishilmoqda.

Lekin, bu shaxsiy yordamchi, dexqon va fermer xo'jaliklarining to'liq imkoniyatlaridan foydalana olyapti deya olmaymiz. Bunda moddiy, manaviy hamda entelektual resuslar to'liq ishlatilmasdan, olinayotgan natija bozor iqtisodiyotini samarali ishlashga to'liq imkoniyat yaratganicha yo'q. Bunda ko'pgina muamolar o'z yechimini kutmoqda. Biz bu kabi muammolarni dissertasiya ishda foydalanamiz.

Xakimov R. O'zbekiston Respublikasi chorvachilik mahsulotlari bozori va tarmoqda iqtisodiy isloxlarni chuqurlashtirish yo'nalishlari. Monografiya. Ushbu monografiyada O'zbekiston Respublikasi qishloq xujaligida olib borilgan iqtisodiy isloxlarning natijalari Respublikada chorvachilik mahsulotlari bozorining shakillanishi va amal qilishning o'ziga xos xususiyatlari o'rganilgan. Shu bilan birga chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni tashkil etishning bozor shakllari va ularning imkoniyatlarini yuksaltirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan. Monografiyada chorvachilikni yem-xashak bazasini mustaxkamlashning iqtisodiy muammolariga, uning mahsulotlarini qayta ishlash va sotish tizimlarini takomillashtirish masalalariga aloxida etibor bilan bajarilganligi etiborimizni qaratdi.

Monografiyada “Chorvachilikning iqtisodiy samaradorlik darajasini oshirish ko’plab omillarga bog’liq. Ularning ichida eng asosiysi yem-xashak xarajatlaridir” deb aloxida bob shaklida malumotlar asosida ushbu bo’lim yoritilib berilgan.

Shu bilan birga “Respublikada qora olchilikning istiqbolli 300 va undan ko’p bosh mol saqlaydigan yirik fermalar xo’jaliklarda qoramolchilikning 35-40 bosh miqdorida ushlash maqsadga muvofiqdir” muallif o’z takliflarini bergan.

Monografiyaning 2-chi bobida shirkat xo’jaliklari dexqon-fermer xo’jaliklarida chorvachilik mahsulotlarini yetishtirish muamolariga aloxida-aloxida bo’limlar keltirilgan. Jumladan, shirkatlarda mulkka egalik masalasi: chorvachilik mahsulotlari tannarxining yuqori bulib ketish sabablari: chorva mollarini yem-xashak va omuxta yem bilan taminlash masalasi: shirkat xo’jaliklarida oilaviy qudrat tamoillariga asoslangan chorvachilik qyermalarini tashkil etish zarurati: chorvachilikda mehnatni tashkil etish va zarurati; chorvachilikda mehnatni tashkil etish va rag’batlantirish tizimlarni rivojlantirish muhimligi asoslab keltirilib berilgan.

Xoshimov M Ye, Tansibayev B.M. Qishloq xo’jalik chorva mollarini oziqlantirish. –T.: O’zbekiston, 2001.

Bu kitob akademik lisey va kasb xunar kollejlari uchun darslik bo’lib, chorva mollarini o’ziqlantirish ilmiy asoslari, ozuvalar va yem xashak turlari ulardagi tuyimli moddalar nisbati va shuningdek xar xil turdagi chorva mollari uchun rasion tuzish,ularni qo’llash usullari bayon etilgan. Bu darslik tushunarli tilda sodda yozilgan va ko’p materiallari o’zida jamlagandir.

2. NUROBOD TUMANIDAGI FERMER XO'JALIKLARINING RESURS POTENSIALI VA ULARDAN FOYDALANISH

2.1. Yer resurslari va ulardan foydalanish.

Yer barcha ishlab chiqarilayotgan boyliklarning manbasi ekanligi ko'p martalab e'tirof etilgan. Sanoat ishlab chiqarishining ayrim turlari uchun yer imoratlar turadigan oddiy baza, qishloq xo'jaligida yesa asosiy ishlab chiqarish vositasi hisoblanadi. Ya'ni kishilar yerga ishlov berish yo'li bilan ishlab chiqarishga ta'sir etadi. Yer bir paytda mehnat predmeti (mehnat yo'naltiriladigan ob'yekt sifatida) va mehnat quroli (yerda zarur biologik sharoitlarni tug'dirish natijasida o'simliklar rivojlanadi) sifatida qishloq xo'jaligida yuzaga chiqadi. Yer har bir xalqning asosiy boyligidir.

O'zbekiston Respublikasining barcha yer resurslari yagona yer fondini tashkil etadi. Ular maqsadli foydalanishiga qarab, O'zbekiston Respublikasi yer kodeksining 2-bobida ko'rsatilganidek quyidagi kategoriyalarga bo'linadi:

1. Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarga: davlat jamoa xo'jaligi, ilmiy-tekshirish, o'quv va boshqa qishloq xo'jaligi korxonalari, muassasalari, shuningdek alohida fuqarolar, dehqon xo'jaliklari va kooperativlarning yerlari kiradi. Bundan tashqari boshqa qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanmaydigan korxonalar, tashkilotlar va muassasalar, ijtimoiy va diniy tashkilotlarga yordamchi qishloq xo'jaligini yuritish uchun berilgan yerlar ham kiradi.

2. Aholi punkti yerlariga shahar, posyolka va boshqalarning yer maydonlari kiradi. Uy-joy fondi, parklar va boshqa madaniy-maishiy ob'yektlarni joylashtirish uchun foydalaniladi.

3. Sanoat, transport, aloqa, mudofaa va boshqa qishloq xo'jaligiga taaluqli bo'lmagan tarmoqlar yerlari. Ular zavodlar, fabrikalar, temir yo'l va avtomobil transporti, aloqa, mudofaa ob'yektlari va boshqalarni joylashtirish uchun foydalaniladi.

4. Tabiatni muhofaza qilish, rekreasiya maqsadlariga mo'ljallangan yerlar-alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar egallagan, tabiiy davolash omillariga ega bo'lgan yerlar, shuningdek ommaviy dam olish va turizm uchun foydalaniladigan yerlar.

5. Tarixiy-madaniy ahamiyatga molik yerlar, tarixiy madaniy yodgorliklar joylashgan yerlar.

6. O'rmon fondi yerlari. O'rmon bilan band yerlar, shuningdek, o'rmon xo'jaligi zaruriyati uchun mo'ljallangan yerlar.

7. Suv fondi yerlari. Suv havzalari, gidrotexnik, suv xo'jalik inshootlari, shuningdek, suv havzalari qirg'oqlari kiradi.

8. Davlat zahira yerlari. Bu yerlar hozircha hiech kimga egalik qilishga va uzoq muddatli foydalanishga berilmagan. Ular asosan mamlakatning kam aholi yashaydigan tumanlarida joylashgan va yangi korxonalar tashkil qilish uchun foydalaniladi, vaqtincha foydalanishga ajratiladi

Respublikamizning umumiy yer fondi 44,8 mln. ga ni tashkil etadi, shundan 27,9 mln. ga yoki 62,3% qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlardir. Shu yerlarning 4 mln. 474 ming ga yoki 15,95% haydaladigan yerlardir. Yer fondining 5-6 mln. gektari dehqonchilikda foydalaniladi Ulardan 4,2 mln gektari sug'oriladigan yer bo'lib, shundan 1,6 mln ga cho'l zonasida, qolgan qismi suvli mintaqada joylashgan. Shu sug'oriladigan yerlarning 3 mln.ga ekinzordir

Hozirgi kunda fermer xo'jaliklarida yer resurslari optimallashtirilgan holda kengaytirilib bormoqda. Buning isbotini tadqiqotimiz ob'yekti bo'lgan Ishtixon tumani fermer xo'jaliklari misolida ko'rib chiqamiz.

Nurobod tumani qishloq xo'jaligining yer resurslari tarkibini ma'lumotlar asosida ko'rib chiqamiz (2.1.1-jadval).

2.1.1-jadval

Nurobod tumani qishloq xo'jaligida yer resurslari tahlili (ga, 2014 y.)*

№	Yoʻnalishi	Umumiy yer maydoni	Ekin yeri			Koʻp yillik daraxtzorlar				Pichanzor va yaylovlar	Qishloq xoʻjalik yer turlari jami	Terakzorlar	Boshqa yerlar
			jami	shundan		jami	shundan						
				suvli	lalmi		Bogʻ	uzumzor	tutzor				
Tuman boʻyicha jami		76121	66355	4958	61398	271	101	146	24	3963	70599	9	1338
	Paxta-gʻalla	16828	15426	4919	10507	70	13	36	21	680	16178	3	650
	Gʻallachilik	49637	46242	0	46242	15	9	3	3	2785	49043	0	594
	chorvachilik	1050	676	39	637	0	0	0	0	363	1039	0	11
	sabzavotchilik	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0
	Bogʻdorchilik	81	0	0	0	80	78	3	0	0	80	0	2
	uzumchilik	106	0	0	0	104	0	104	0	0	104	0	1
	tutchilik	1	0	0	0	1	0	0	1	0	1	0	0
	terakchilik	7	0	0	0	0	0	0	0	0	7	7	0

*Manba: Nurobod tumani Statistika bo'limi ma'lumotlari

2.1.1-jadval ma'lumotlariga ko'ra, o'rganilgan davrda Nurobod tumani qishloq xo'jaligida umumiy yer maydoni 76121 ga bo'lib, uning ekin maydoni 66355 gektar bo'lgan. Tuman fermer xo'jaliklari ixtiyorida sug'oriladigan – 4958 ga va lalmi – 61398 ga yer maydoni mavjud.

Qishloq xo'jaligida turli ekinlarning suvga bo'lgan talabi turlicha hisoblanadi. Bu talab o'simliklarning xususiyatlaridan, rivojlanish boskichlaridan kelib chikadi.

Qishloq xo'jaliklariga suvni o'z vaqtida yetkazib berishni tashkil etish uchun boshqaruv tizimini bozor munosabatlarida shakllantirib, iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish lozim. Qishloq xo'jalik korxonalariga suvni yetkazib berish va undan foydalanishda yerning meliorativ holatiga, shuningdek meliorasiya tizimiga e'tibor berish kerak.

Irrigasiya deganda, suv resurslari bilan ta'minlash va suv inshootlari faoliyati tushuniladi. Meliorasiya esa yerning tabiiy unumdorligini yaxshilash chora-tadbirlarining jamlanmasidir.

Yer-suv resurslaridan foydalanishda davlat roli nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi. Davlat tomonidan yer va suv xo'jaligiga doir iqtisodiy islohotlar olib boriladi, qonunlar, qaror va farmoyishlar ishlab chiqariladi.

Xalq xo'jaligida suvdan foydalanish asosan to'rt turga bo'linadi:

1. Suvdan asosiy maqsadga muvofiq foydalanish;
2. Suvdan umumiy va maxsus foydalanish;
3. Suvdan birgalikda va tanho holda foydalanish; -
4. Suvdan birlamchi va ikkilamchi foydalanish.

Suvdan umumiy va maxsus foydalanishning 2 xili mavjud:

1. Suvdan umumiy foydalanish – suvning holatiga ta'sir qiladigan inshootlar yoki texnikaviy qurilmalarni qo'llamay turib foydalanish;
2. Suvdan maxsus foydalanish inshootlarini yoki qurilmalarini qo'llash yo'li bilan foydalanish.

Qishloq xo'jaligida turli ekinlarning suvga bo'lgan talabi turlicha hisoblanadi. Bu talab o'simliklarning xususiyatlaridan, rivojlanish boskichlaridan kelib chiqadi.

Masalan, 1 s g'alla (bug'doy, roj, arpa, tariq)ni olish uchun 30-40 tonna, kartoshka uchun – 18-20 tonna, sholi uchun – 135-140 tonna va paxta uchun – 800-1000 tonna suv zarurdir. Suv o'simlik uchun fotosintez vazifasini o'taydi.

2.1.2-jadval

Qishloq xo'jalik ekinlarining sug'orish soni va me'yorlari

№	Ekin turi	Sug'orish soni	Sug'orish me'yor, m ³ /ga	Mavsumiy sug'orish me'yor, m ³ /ga
1.	G'o'za	5-7	800-1200	5000-8000
2.	Kuzgi bug'doy	4-5	700-800	3000-4000
3.	Makkajo'xori	7-8	700-800	5000-6500
4.	Beda	10-12	1000-1200	10000-12000
5.	Qand lavlagi	6-8	500-600	3000-4000
6.	Kartoshka (ertagi)	7-8	400-500	3000-4000
7.	Pomidor	15-16	600-700	9000-10000
8.	Piyoz	18-20	500-600	9000-12000
9.	Sabzi (kechki)	8-12	500-550	5000-6000
10.	Chuchuk qalampir	14-15	600-700	9000-10000
11.	Baqlajon	15-16	600-700	9000-10000
12.	Oqbosh karam	14-15	600-700	9000-10500
13.	Bodiring	12-14	500-550	6000-7500
14.	Sarimsoq	7-10	500-600	4000-60000
15.	Qovun	5-6	600-700	3000-4000
16.	Tarvuz	5-6	600-650	3000-3900
17.	Qovoq	6-7	650-750	4550-6000
18.	Kungaboqar	3	600-800	1800-2400
19.	Sholi	-	-	3000 gacha

Manba: Ismoilov A., Murtazayev O. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti. Darslik. –T.:Moliya, 2005.

2.1.2-jadvalda qishloq xo'jalik ekinlarining o'rtacha sug'orish soni va normalari ko'rsatilgan. Belgilangan suv resurslarini nobud etgan korxonalar jarima to'laydilar.

2.2. Mehnat resurslari va ulardan foydalanish

Mamlakatimizning qishloq xo'jalik mahsulotlariga bo'lgan barcha talablarini qondirishda jonli va buyumlashgan mehnatning ahamiyati ulkan. Qishloq xo'jalik

mahsulotlarini yetishtirishda tabiiy sharoitning (harorat, yog'in va issiq kunlar miqdori) ahamiyati katta. Ishlab chiqarish inson mehnati hamda mehnat predmetlari va vositalari, tabiiy sharoitlarni e'tiborga olgan holda samrali uyg'unlashishini talab etadi. Inson shu ishlab chiqarish vositalarini ma'lum hududda, davrda ishga solib, ishlab chiqarish jarayonini amalga oshiradi. Bu jarayon bir qancha mehnat jarayonlarini o'z ichiga oladi. Jumladan, ekinlar yekiladigan yerlarni haydash, ekishga tayyorlash, yekish, suv berish, ishlov berish, hosilni terib olish va boshqalar. Ishlab chiqarish jarayonining samarasi, avvalo, insonning ongiga, bilimiga, malakasiga, munosabatiga, qolaversa, fan-texnika taraqqiyotiga, ishlab chiqarish vositalarining sifatiga, holatiga va nihoyat, tabiiy sharoitga bog'liq. Demak, inson o'z faoliyatini ularning barchasini oqilona, uddaburonlik bilan samarali ishga solishga qaratishi kerak. Shunday mehnat iqtisodiy kategoriya hisoblanadi. Uning tabiati ishlab chiqarish munosabatlari bilan belgilanadi. Qishloq xo'jaligida mehnat tarmoqning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda quyidagi xususiyatlarga ega:

- mehnat va uning samarasi tabiiy sharoit bilan bog'liqligi;
- mehnatdan foydalanishga ishlab chiqarish mavsumiyligining ta'sir qilishi;
- qishloq xo'jaligidagi mehnatning o'simliklar hamda tirik mavjudotlar (hayvonlar, o'simliklar) bilan uzviy bog'langanligi;
- qishloqdagi mehnat saviyasi va bilim darajasining nisbatan pastligi;
- o'simlikchilik va chorvachilik tarmoqlarida ishlab chiqarish jarayonlarining avtomatlashtirilganlik va mexanizasiyalashtirilganlik hamda elektrlashtirilganlik darajasi pastligi;
- tarmoqda tor doiradagi ixtisoslashishning kamligi;
- qishloq xo'jaligida sarflanayotgan mehnat tarkibida ayollar va yoshlar mehnati salmog'i (hissasi) ning ko'pligi;
- qishloq xo'jaligida mehnatga to'lanayotgan haq va uning ijtimoiy himoyalaniishi boshqa tarmoqlardagiga nisbatan pastligi va boshqalar.

Ta'kidlangan xususiyatlar tarmoqda sarflanadigan mehnatning miqdoriga, sifatiga va samarasiga bevosita ta'sir etadi. Turlicha tabiiy sharoitda, har xil

darajada ixtisoslashgan xo'jaliklarda bir xil ish jarayonlarini amalga oshirish uchun har xil miqdorda bir turdagi mehnat sarflanadi, uning samaradorligi ham birbiridan farq qiladi. Kech kuz, qish va erta bahorda mehnat sarfi keskin kamayib, hosilni yig'ib olishda unga bo'lgan talab ortadi. Shu davrda mavsumiy ishchilar shartnoma asosida jalb etiladi. O'simchilik va chorvachilikda bajariladigan ishlarning ko'pchiligi yuqori darajada bilim va malaka talab yetmaydi. Qishloq xo'jaligidagi mehnat tarkibida ayollar mehnatining salmog'i hozirgi davrda ancha yuqori. Shuning uchun ham tarmoqda mehnatga to'lanayotgan haq kamroq. Tarmoqning yangi, unumli texnikalar bilan talab darajasida ta'minlanmaganligi ayrim ish jarayonlarini (sug'orish, chikanka qilish, hosilni yig'ib olish, chorva hayvonlarini oziqlantirish, sog'ish) to'liq mexanizasiyalashtirish imkonini bermaydi, natijada oddiy jonli mehnat xarajatlari ortadi. Qishloq xo'jaligida mehnat jarayonini amalga oshirishda uning samarali bo'lishini ta'minlash uchun barcha xususiyatlarni e'tiborga olish maqsadga muvofiqdir.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish samaradorligi mehnat resurslarining miqdoriga, tarkibiga, malakasiga va ulardan foydalanish samaradorligiga bog'liq. Qishloq xo'jaligida mehnat resurslariga mehnatga yaroqli erkaklar -16 dan 60 yoshgacha, ayollar -16 dan 54 yoshgacha, shuningdek qishloq joyda yashovchi o'smirlar va nafaqaxo'rlar kiradi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ish kuchi ikkita sharoit ta'sirida tovarga aylanadi. Birinchidan, kishi ozod bo'lishi kerak va o'z ish kuchiga mustaqil egalik qilish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak. Ikkinchidan, u ishlab chiqarish vositalaridan mahrum bo'lishi kerak, aks holda unda ish kuchini sotish zaruriyati bo'lmaydi. Qishloq xo'jaligida bundaylar yollanma xodimlar hisoblanadi. Bozorda u o'z ish kuchining egasi, sotuvchi sifatida xaridor bilan qarama-qarshi turadi.

Ishchi kuchi boshqa tovarlar singari, iste'mol qiymat va qiymatga ega. Ish kuchining iste'mol qiymati, uning o'z mehnat qobiliyati bilan iste'mol qiymat va qiymatga ega bo'lgan yangi tovar yaratishidir. Boshqa tovarlardan farq qilib ishchi kuchi iste'mol jarayonida o'z qiymatidan ko'p bo'lgan daromad yaratadi. Bu ortiqcha daromad qo'shilgan qiymatning tarkibidir. Ish kuchining qo'shilgan

qiymat yaratish qobiliyati piravord natijada tovar bo'lgan ish kuchining iste'mol qiymatidir.

Bandlik iqtisodiy kategoriya sifatida mehnatga yaroqli aholining ijtimoiy mahsulotni yaratish bo'yicha qiladigan faoliyatini ifodalaydi. Bandlikning to'liqligi aholining iqtisodiy faolligiga munosabati bo'yicha hisobga olinadi. Bunga mahsulot tovar ishlab chiqarishda va xizmatlarni amalga oshirishda qatnashuvchi shaxslar tegishlidir. Iqtisodiy faol kishining mehnat statusi miqdor jihatidan ma'lum bir vaqt davomida ishlangan kunlar soni bo'yicha hisoblanadi.

Bandlik bo'yicha iqtisodiy faol aholiga qo'yidagilar kiradi:

- yollanma mehnatchilar (ishchi va xizmatchilar);
- doimiy xodimlar, haq to'lanmaydigan oila a'zolari;
- mavsumiy xodimlar, haq to'lanmaydigan oila a'zolari;
- ob'yektiv sabablar bo'yicha vaqtincha ishlamaydigan shaxslar, mavsumiy va tasodifiy xodimlar;
- to'liq bo'lmagan ish kuni rejimida ish bilan o'qishni qo'shib olib boradigan va stipendiya yoki ish haqi oluvchi shaxslar va o'qituvchilar.

Qishloq xo'jaligida bandlik o'ziga xos xususiyatlarga ham ega. Ular tarmoqqa mehnatni jalb qilishning iqtisodiy sharoitlari bilan bog'langan. Qishloq xo'jaligida mehnat organik jihatdan yer resurslari bilan bog'langan. Bu yerda yer mehnat munosabatlarining moddiy jihatdan quvvatlovchisi, yuzaga chiqaruvchisi hisoblanadi. Mehnat natijalariga tabiiy biologik jarayonlar bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish va mehnatning mavsumiyligi tufayli ish kuchiga ijtimoiy ishlab chiqarish tomonidan notekis talab mavjud. Bu yerda doimiy va mavsumiy ish kuchi bo'ladi. Doimiy xodimlar asosan doimiy ish hajmini bajarishga yunaltiriladi, mavsumiy ish kuchi esa mavsumiy ishlarni bajarish uchun jalb qilinadi.

Qishloq xo'jaligida bandlik ikki xil shaklda ko'rinadi: to'liq va to'liq bo'lmagan. To'liq bandlik butun yil davomida ishni garantiyalaydi. Bu asosan chorvadorlar, mexanizatorlar, ishlab chiqarish rahbarlari va mutaxassislardir.

To'liq bo'lmagan bandlik to'liq bo'lmagan ish kuni, to'liq bo'lmagan ish haftasi, to'liq bo'lmagan ish yili bilan xarakterlanadi. Bunday kategoriyaga qo'l mehnati bilan band bo'lgan xodimlar, mexanizatorlarning alohida guruhlari mavsumiy ish turiga jalb qilingan nafaqaxurlar, o'qituvchilar kiradi.

Band bo'lgan xodimlarga qo'yidagilar kiradi:

- yollanib ishlaydigan, shu jumladan, mavsumiy va vaqtincha ishlarni ham qo'shganda, to'liq yoki to'liq bo'lmagan sharoitda rag'batlanish uchun ish bajaradigan xodimlar;

- tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchilar;

- o'zini ish bilan mustaqil ta'minlovchilar;

- yordamchi hunarmandchilikda va mahsulotni shartnoma bo'yicha sotishda band bo'lganlar;

- fuqarolik-huquqiy shartnoma bo'yicha ish bajaruvchilar, shuningdek, ishlab chiqarish kooperativlari a'zolari.

Nurobod tumani qishloq xo'jaligida mehnat resurslari soni va ularning o'zgarishi tahlil etildi (2.2.1-jadval).

2.2.1-jadval

Nurobod tumanida mehnat resurslari manbalarining shakllanishi (kishi)*

№	Ko'rsatkichlar	Yillar			2014 yilda 2012 yilga nisbatan o'zgarish	
		2012	2013	2014	+/-	%
1	Jami a'zolar	3011	3157	2605	-406	86,5
2	xotin-qizlar	1430	1500	1289	-141	90,2
	salmog'i, %	47,5	57,6	49,5	2,0	
3	Doimiy ishchilar	2463	2582	1010	-1453	41,0
	salmog'i, %	81,8	99,1	38,8	-43,0	
4	Yollanma ishchilar	548	575	1595	1047	2,9 m
	salmog'i, %	18,2	22,1	61,2	43,0	
5	Rahbar xodimlar	520	520	544	24	104,6
	salmog'i, %	17,3	20,0	20,9	3,6	

*Manba: Nurobod tumani Statistika bo'limi ma'lumotlari

2.2.1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, qishloq xo'jaligida mehnat resurslari sonida o'zgarish bo'lgan. 2014 yilda a'zolar soni 2605 kishi bo'lib, 2012 yilga nisbatan -406 kishiga yoki 13,5 %ga kamaygan.

Mehnat resurslari tarkibida doimiy ishchilar sonining kamayishi alohida ta'kidlash lozim. 2012 -2014 yillar davomida doimiy ishchilar soni -1453 kishiga yoki 59 foizga kamayganligi ishchi kuchi qo'nimsizligi borasida salbiy natijalar berayotganligini bildiradi.

2.3. Moddiy resurslar va ulardan samarali foydalanish holati

Agrosanoat majmuasining moddiy – texnika resurslari deganda majmua tarmoqlarida, uning xo'jalik yurituvchi sub'yektlarida mavjud barcha asosiy fondlar, xo'jalik inventarlari yig'indisi tushuniladi. Agrosanoat majmuasi tarmoqlarining, ayniqsa, qishloq xo'jaligining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash katta ahamiyatga ega. Chunki ishlab chiqarishning mexanizasiyalashganlik darajasi bevosita tarmoqda, xo'jaliklarda mavjud texnikaning miqdori va sifatiga bog'liq. Agar texnikalar yetarli miqdorda bo'lmasa, demak, qishloq xo'jaligi ishlarini agrotexnik muddatlarida bajarish mumkin emas. Bu, o'z navbatida, barcha natijaviy ko'rsatkichlarning pasayishiga olib kelishi turgan gap. Birgina shu misolning o'zi ishlab chiqarishda moddiy-texnika resurslarining ahamiyati qanchalik katta yekanligini ko'rsatadi. Har qanday tarmoqning moddiy-texnika bazasi ishlab chiqarishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Ma'lumki, ishlab chiqarish jarayoni yuz berishi uchun, asosiy fondlar, xomashyolar, mehnat resurslari va tadbirkorlik qobiliyatlari bo'lishi va ular birgalikda faoliyat ko'rsatishi lozim.

Mamlakatda olib borilayotgan iqtisodiy siyosat natijasida qishloq xo'jaligining moddiy-texnika bazasi keyingi yillarda yanada mustahkamlanib bormoqda. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga "Keys", "Magnum" kabi yuqori unumli texnikalar kirib kelmoqda. Oz bo'lsa-da, fermer va dehqon xo'jaliklarida kichik texnikalar paydo bo'lmoqda.

Qishloq xo'jaligining moddiy-texnika bazasi boshqa tarmoqlarnikidan farq qiladigan xususiyatlarga ega. Bu xususiyatlarning eng asosiylari quyidagilardan iborat:

Birinchidan, qishloq xo'jaligi moddiy-texnika bazasining tarkibiga yer kiradi. Yer qishloq xo'jaligida asosiy ishlab chiqarish vositasi sifatida ishtirok etishi bizga ma'lum. Yerning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda xo'jaliklarning moddiy-texnika bazasini rivojlantirish zarur. Yerning holatiga qarab o'g'it turlari, o'g'itning miqdori, texnikalarning turi va boshqalar tanlanadi. Agarda yerning meliorativ holatlarini qisobga olmasdan ekin turi, ma'danli o'g'itlar, unga ishlov beradigan texnikalar tanlansa, ishlab chiqarishning natijasi past bo'lishi turgan gap. Ba'zi hollarda yerga bunday munosabatda bo'lish uning ishlab chiqarish oborotidan chiqib ketishiga ham olib kelishi mumkin.

Ikkinchidan, qishloq xo'jaligining moddiy-texnika bazasi tabiat qonunlariga boshqa tarmoqlarnikiga nisbatan ko'proq bog'liq. Buning natijasida turli mintaqalarda turlicha texnika va boshqa resurslardan foydalanish zarurati kelib chiqadi. Shimoliy zonalarida ekin turlari janubiy zonalaridagidan farq qiladi. Shimoliy zonalarida issiq kunlarning nisbatan kam bo'lishi, eng avvalo, qisqa muddatlarda pishib yetiladigan ekin turlarini joylashtirishni talab qiladi. Janubiy hududlarda esa ekin turlarini tanlash imkoniyatlari kattaroq. Bunday holatlar esa moddiy-texnika resurslarining turli mintaqalarda turlicha bo'lishini talab qiladi.

Uchinchidan, qishloq xo'jaligida moddiy-texnika resurslaridan foydalanish samaradorligi ishlab chiqarishning mavsumiyligi bilan bog'liq. Qishloq xo'jaligida ish davri bilan ishlab chiqarish davrining mos kelmasligi oqibatida ayrim texnika vositalari yilda bir necha kun yoki oy ishlatiladi, xolos. Masalan, don o'rish kombaynlari asosan o'rim – yig'im davrida 2 oy ishlatiladi. Yer qazish ishlarida ishlatiladigan yekskovatorlar ham bunga misol bo'la oladi. Qishloq xo'jalik korxonalari qimmatbaho texnikani (kombaynlarni) yil davomida saqlashga majbur. Bu esa katta miqdorda qo'shimcha xarajatlarni talab qiladi. Natijada, asosiy fondlardan, texnikalardan foydalanish samaradorligi pasayadi.

To'rtinchidan, qishloq xo'jaligida moddiy-texnika resurslarining katta qismini tirik organizmlar (chorva mollari, ko'p yillik mevali bog'lar, uzumzorlar va boshqalar) tashkil yetadi. Bu esa ishlab chiqarish jarayonida biologik qonuniyatlarni ham hisobga olishni talab etadi. Aks holda natija past bo'lishi mumkin. Bu xususiyatni hisobga olmaslik xo'jaliklarda mavjud texnikada, fondlardan foydalanish samaradorligi pasayishiga olib kelishi mumkin.

Beshinchidan, ishlab chiqarish keng maydonlarda olib borilishi xo'jaliklarda yaxshi rivojlangan transport tizimi, yo'l va aloqa kommunikasiyalari bo'lishini talab qiladi. Texnikalarni bir maydondan ikkinchisiga olib borish, ularni ta'mirlashni tashkil etish jarayonida qishloq xo'jaligi moddiy-texnika resurslarini tashkil etishning o'ziga xosligi namoyon bo'ladi. Bu xususiyat katta qo'shimcha mablag'larni talab qiladi.

Oltinchidan, qishloq xo'jaligining moddiy-texnika bazasi ko'p jihatdan sanoatning rivojlanganligiga bog'liq. Shu bilan birga moddiy-texnika resurslarining (yem-xashak, zotli chorva mollari, urug'liklar kabilar) bir qismi qishloq xo'jaligining o'zida ishlab chiqariladi. Bu esa sarflanayotgan mablag'larning sotib olinayotgan va o'zida ishlab chiqarilayotgan moddiy-texnika resurslariga mos ravishda taqsimlanishini talab qiladi. Aks xolda ishlab chiqarishning natijaviy ko'rsatgichlari pasayishi mumkin.

Hozirda mamlakatimiz qishloq xo'jaligining mexanizasiyalashganlik darajasini oshirish, asta-sekinlik bilan uni sanoat asosiga o'tkazish borasida ishlar olib borilayapti. Bu qishloq xo'jaligi taraqqiyotining ob'yektiv yo'nalishlaridan biridir.

Qishloq xo'jaligini intensiv rivojlantirish hozirgi bosqichida mavjud ishlab chiqarish potensialining samaradorligini oshirishda moddiy-texnika bazasini kengaytirish qayta tashkil qilish va rekonstruksiya qilish birlamchi ahamiyatga egadir.

Qishloq xo'jaligini moddiy-texnika bazasi deganda, qishloq xo'jaligida mavjud bo'lgan barcha mehnat vositalari va mehnat buyumlari yig'indisiga tushuniladi. Uning tarkibiga yer resurslari, ishlab chiqarish imoratlari, inshootlari,

qishloq xo'jaligi mashinalari va jihozlari, transport vositalari, mahsuldor va ishchi hayvonlari, ko'p yillik daraxtlar, suv resurslari, urug'lik, chorva ozuqalari, neft mahsulotlari, o'g'it, kimyo vositalari va boshqalar kiradi.

Hozirgi paytda ASMDa foydalanilayotgan ishlab chiqarish fondlari jami xalq xo'jaligi fondlarining 35-40% tashkil etadi. Ishlab chiqarish jarayonida ishlab chiqarish fondlari jamoa mehnatining jamg'arilishi bir yo'la to'la aylanish — ya'ni ularni pul shaklidan moddiylashgan buyum shakliga, moddiylashgan buyum shaklidan tovar shakliga, tovar shaklidan pul shakliga aylanish - davrida namoyon bo'ladi. Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish fondlari ishlab chiqarish jarayonida iqtisodiy ahamiyatiga, qo'llanish usullariga va xizmat qilish muddatiga qarab asosiy va aylanma fondlarga bo'linadi.

Asosiy ishlab chiqarish fondlari deb, ishlab chiqarish jarayonida bir necha bor ishtirok etib, o'zining tashqi ko'rinishini o'zgartirmaydigan, qiymatini mahsulot tannarxiga asta-sekinlik bilan o'tkazib boruvchi vositalarga aytiladi. Bularga ishlab chiqarish binolari, inshootlar, mashina va asboblari, transport vositalari, xo'jalik va ishlab chiqarish inventarlari, ishchi va mahsuldor hayvonlar, ko'p yillik daraxtlar va boshqa, ya'ni bir yildan ortiq ishlatiladigan vositalar kiradi.

Moddiy-texnika resurslariga bino-inshootlarning ichida joylashgan barcha mashina, transport vositalari, materiallar bilan birga ekin uchun urug'liklar, ko'p yillik o'simlik va daraxtlar, ko'chatlar, o'rmon, suv omborlari va hokazolar ham kiritiladi. Shuningdek, ishlab chiqarish – texnik potensial degan tushuncha mavjudki, u qishloq xo'jaligida istiqbolida ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun mavjud bo'lgan va yaratilajak moddiy-texnika resurslarining baholanishi, boshqa resurslar bilan bo'lgan munosabatlar, ishlab chiqarishdagi kuch quvvati va boshqa xususiyatlari bilan xarakterlanadi.

Moddiy-texnika resurslarining muhim ahamiyatga ega ekanini yuqoridagi fikr-mulohazalardan bilib oldik. Ularning xususiyatlari to'g'risida gapirsak, eng avvalo qishloq xo'jaligida moddiy-texnika resurslarining o'ziga xos bo'lgan xususiyatlariga to'xtalish lozim:

Birinchidan, resurslar tarkibida kelib chiqishi, ishlatilishi, vazifalari va turlariga ko'ra xilma-xillikka ega bo'lgan vositalar mavjudki, ularsiz ishlab chiqarish sodir bo'lmaydi. Xususan, qishloq xo'jalikining moddiy-texnika resurslari tarkibida energetik va ishchi mashinalar, texnologik uskunalar, traktor (universal va haydaydigan), o'zi yurar shassi, stasionar issiq dvigatellar, yer qazuvchi meliorativ va boshqalar, texnologik mashinalar; yuk avtomobillari va boshqalar, transport mashinalar, traktor tirkamalari, chorvachilik fermalari uchun uskunalar, yerga ishlov berish va hosil yig'ish uchun maxsus ishchi mashinalari borki, ularsiz ishlab chiqarish to'xtab qoladi. Faqatgina energetik mashinalarning o'zi qishloq xo'jaligida energetik quvvatning 80 foizini yaratadi. Ushbu mashinalarning alohida vazifasiga ko'ra yoki tizimli ravishda ishlashi insonni og'ir va charchatuvchi mehnatdan ozod qilib, qo'l mehnati bilan bajarib bo'lmaydigan ishlarni texnologik jarayonlar vositasida amalga oshiradi. Shuning bois alohida tarmoqlar uchun qishloq xo'jalik resurslari tarkibida kompleks mashinalardan foydalanish zaruriyati tug'iladi.

Ikkinchidan, moddiy-texnika resurslari qayta yaratilishi mumkin. Bu hodisa esa sanoat ishlab chiqarishi hisobida sodir bo'ladi.

Uchinchidan, qishloq xo'jaligida moddiy-texnika resurslari joriy etish cheklangan hisoblanadi. Bu cheklanish iqtisodiy shart-sharoitlardan kelib chiqib, qayta ishlanishiga zamin yaratadi.

To'rtinchidan, qishloq xo'jaligi uchun hududiy birlik xarakterlidir, shunga ko'ra moddiy-texnika resurslarning ko'p sonli qishloq joylarda birdek xizmat ko'rsatish konsentrasiyasi ta'minlanadi.

Beshinchidan, moddiy-texnika vositalarining qishloq xo'jaligi maqsadlariga mo'ljallangan hissasi boshqa alohida tarmoqlarnikiga ko'ra kattaroq bo'ladi. Bulardan tashqari, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishda moddiy-texnika vositalaridan foydalanishning yana quyidagi xususiyatlari mavjud:

- qishloq xo'jaligining o'zi mavsumiy xarakterga egaligini inobatga olib, moddiy-texnika vositalaridan foydalanish ham mavsumiy xarakterga egadir. Bu

esa, ulardan foydalanish samaradorligini oshirish bilan bog'liq muammolarni keltirib chiqaradi;

- moddiy buyumlashgan ko'rinishdagi moddiy-texnika resurslari tabiiy sharoitlar ta'siriga uchraydi va ularni saqlash ma'lum miqdorda sarf-xarajatlarni talab etadi;

- qishloq xo'jalikda foydalaniladigan moddiy-texnika resurslari tarkibiga jonli organizmlar, o'simliklar va chorva mollari ham kiradi;

- ishlab chiqarishda foydalaniladigan ayrim moddiy resurslar shu xo'jalikning o'zida yaratiladi (chorvachilikda foydalaniladigan yem-xashak, o'simlikchilikda urug'lik, organik o'g'itlar va boshqalar).

Tadqiqot ob'yekti bo'lgan Nurobod tumani fermer xo'jaliklari moddiy-texnika resurslari o'zgarishi tahlil etildi (2.3.1-jadval).

2.3.1-jadval

Nurobod tumani qishloq xo'jalik korxonalarida asosiy fondlar qiymatining o'zgarishi (2012-2014 yy.)*

№	Ko'rsatkichlar	Yillar				2014 yilda 2012 yilga nisbatan o'zgarishi, +/-	
		2012		2014			
		Qiymati, mln so'm	Salmog'i, %	Qiymati, mln so'm	Salmog'i, %	Qiymati, mln so'm	Salmog'i, punkt
1.	Bino	3894,8	29,6	5140,8	29,6	1246,0	0,0
2.	Inshoat	783,9	6,0	910,3	5,2	126,4	-0,7
3.	Uzatish moslamalari	197,4	1,5	221,7	1,3	24,3	-0,2
4.	Mashina va uskunalari	4238,0	32,2	5409,6	31,2	1171,6	-1,0
5.	Mebel va ofis jihozlari	35,9	0,3	55,8	0,3	19,9	0,0
6.	Kompyuterlar	12,4	0,1	23,4	0,1	11,0	0,0
7.	Transport vositalari	1688,1	12,8	2708,9	15,6	1020,8	2,8
8.	Mahsuldor hayvonlar	25,4	0,2	38,9	0,2	13,5	0,0
9.	Ko'p yillik o'simliklar	1866,9	14,2	2207,0	12,7	340,1	-1,5
10.	Boshqa asosiy vositalar	418,7	3,2	643,1	3,7	224,4	0,5
	Jami asosiy vositalar	13161,5	100,0	17359,5	100,0	4198,0	0,0

*Manba: Nurobod tuman statistika ma'lumotlari.

2.3.1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, Nurobod tumani qishloq xo'jalik korxonalarida 2014 yilda asosiy vositalarning qiymati 17359,5 mln.so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2012 yilda 13161,5 mln.so'mni tashkil etgani holda, 2014 yilda 2012 yilga nisbatan 4198,0 mln.so'mga oshgan. Ushbu oshish tuman fermer xo'jaliklarida transport vositalari – 2,8 punktga, boshqa asosiy vositalarning – 0,5 punkt oshishi, inshootlar qiymatining – 0,7 punkt, uzatish moslamalari qiymatining – 0,2 punkt, mashina va uskunalarining – 1,0 punkt, ko'p yillik o'simliklarning – 1,5 punkt kamayishi hisobiga yuz bergan.

3. SIGIRLARNI YAYLOVLARDA BOQISHNI ULARNING MAHSULDORLIGIGA VA XO'JALIKNING IQTISODIY SAMARADORLIGIGA TA'SIRINING HOZIRGI HOLATI TAHLILI

3.1. Hayvonlarni yaylovda saqlash usullari

Chorvachilik mahsulotlarini ko'paytirish, sifatini yaxshilash va tannarxini arzonlashtirishda hayvonlarni har xil o'simliklarga boy yaylovlarda boqish juda katta ahamiyatga ega. Tabiiy o'simliklar kam o'sadigan joylarda sug'oriladigan madaniy yaylovlarni barpo etish, botqoqliklarni quritish, qo'shimcha oziqa bazasini yaratishga imkon beradi. Jumladan, sahro va cho'l hududlarida mayin o'tlarni saqlab qolish maqsadida saksovulzorlar va izenzorlar tashkil qilingan. Bu bilan esa tabiiy yaylovlarning unumdorligi ancha oshiriladi.

Hayvonlarni yaylovda boqish qishki sharoitga o'tishda katta ahamiyatga ega. Yaylovlar eng arzon va qimmatli ko'k o't manbai hisoblanadi. Bundan tashqari, hayvonlar toza havoda erkin harakat qiladi, quyosh nuridan bahramand bo'lib, organizmning hamma hayot faoliyati, modda almashish, o'sish va rivojlanish, o'pka va yurakning yaxshi ishlashiga ta'sir etadi. Yaylovlarda hayvonlar engil hazm bo'ladigan (protein, mineral tuzlar, mikroelementlar va vitaminlarga boy) ko'k oziqalar bilan ta'minlanadi. Natijada yaylov sharoitida hayvonlarning maxsuldorligi oshadi va har xil kasalliklarga nisbatan chidamli bo'ladi. Yaylovlarda mollarni boqish sil, raxit, osteomolyasiya, avitaminoz, oshqozon-ichak yallig'lanishi kabi kasalliklarning oldini olishda asosiy omillardan hisoblanadi. Erkak hayvonlarning jinsiy faoliyati yaxshilanadi, urg'ochi hayvonlarning urug'lanishi ortadi, tug'ishi engillashadi, tuqqandan eyin kamdan-kam kasallanadi va tug'ilgan yosh hayvonlar baquvvat va hayotchan bo'ladi.

Shunday qilib, hayvonlar yaylov sharoitida boqilganda ularning organizmini umumiy holati yaxshilanadi, mahsuldorligi va nasl berish xususiyati ortadi. Yaylovlarda ko'k o'tlar butun yoz davomida etsa yaxshi samara beradi. Ammo tabiiy yaylovlarda hayvonlar to'yib oziqa emasalar ularning mahsuldorligi kamayadi va organizmining turli kasalliklarga chidamliligi pasayadi.

Yaylovlardan foydalanish sharoitiga qarab ular bahorgi, yozgi, kuzgi, qishki va yil davomidagi yaylovlarga bo‘linadi. Yaylovlarda saqlash quyidagi turlarga bo‘linadi:

- 1) *molxonada boqish* - hayvonlar fermalardan uzoq bo‘lmagan yaylovlarga chiqariladi va har kuni qishki binolarga qaytariladi;
- 2) *lager - yaylov usuli*, bunda hayvonlar yaylov va lagerlarda saqlanadi;
- 3) *molxona - yaylov usuli*, hayvonlar jihozlangan lagerlarda saqlanib, ko‘k o‘tlar o‘rib keltiriladi;
- 4) *uzoq yaylov usuli* - hayvonlar mavsumiy uzoq yaylovlarga haydaladi.

Yaylovlar tabiiy va madaniy turlarga bo‘linadi. Tabiiy yaylovlarda bir yillik va ko‘p yillik har xil manzarali o‘simliklar o‘sadi, madaniy yaylovlarda esa ko‘p yillik o‘simliklar eqiladi. Shuni aytish keraki, ba’zi bir xo‘jaliklarda tabiiy yaylovlarda hayvonlar iste’mol qilmaydigan o‘simliklar ko‘p bo‘lib, umumiy hosildorligi juda past bo‘ladi.

Yaylovlarni qishki molxonalardan uzoq - yaqinligi, tabiiy sharoiti, tuproq tuzilishi va o‘simliklarning botanik tarkibiga qarab, hamma hayvonlarga ham to‘g‘ri kelavermaydi. Hayvonlardan olinadigan mahsulotni ko‘paytirish va ular sog‘ligini saqlashda har bir tur va guruhga ajratilgan yaylovlar talab darajasida bo‘lishi kerak.

Botqoqlashgan yoki botqoqli, kam o‘tli yaylovlar sigir va buzoqlar uchun tavsiya qilinmaydi. Ko‘pincha bunday joylarda zararli va zaharli o‘simliklar ko‘p uchraydi. Botqoqli tuproqlar tarkibida kalsiy va fosfor, kobalt va mis kam bo‘ladi. Bunday yaylovlarda boqilgan mollar orasida osteomolyasiya, akobaltoz va boshqa kasalliklar ko‘p uchraydi.

Chakalakzorlar ham sigirlarga bo‘lmaydi. Bunday yaylovlarda hayvonlar mayda shox va barglarni eyishidan oshqozon-ichak kasalliklari kelib chiqadi. Zax o‘rmon yaylovlarda hayvonlarga tajovuz qiladigan har xil hasharotlar ham bo‘ladi.

Yaylovlar har xil turdagi va yoshdagi hayvonlar uchun bo‘linganda lager va molxonalarga yaqin, o‘simliklarga boy yaylovlar - yosh mollar, bo‘g‘ozlikni oxirgi oyidagi, ko‘p mahsulot beradigan sigirlarga ajratiladi.

Har xil xo‘jalik sharoitida yaratilgan madaniy yaylovlar hayvonlarni yozda saqlashni yaxshilaydi va oziqa bazasini mustahkamlaydi. Shuning uchun ham keyingi yillarda hamma joylarda fermalar atrofida almashlab ekish, yaylovlarni o‘g‘itlash, sug‘orish, madaniy yaylovlarni ko‘paytirish keng yo‘lga qo‘yilgan.

Iqlim sharoiti, tuproq tuzilishi va boshqa sharoitlarga karab madaniy yaylovlarda har xil boshqoli - dukkakli o‘simliklar eqiladi.

Ko‘p yillik sug‘oriladigan madaniy yaylovlarga yaxshi qaralsa va ulardan to‘g‘ri foydalanilsa har yili gektaridan 200 - 300 s oziqa yoki 20 - 30 s oziqa birligi olinadi. Bu esa chorvachilik mahsulotlarini ko‘paytirish, tannarxini pasaytirishda asosiy manba hisoblanadi.

Erta ko‘klamda hayvonlarni boqish uchun ajratilgan yaylovlarni zooveterinariya mutaxassislari va xo‘jalik rahbari ishtirokdagi hay‘at ko‘rib, tekpscrib chiqadi. Bunda urning hosildorligi, sifati, er tuzilishi, namlik darajasi, suvning borligi va uning sifati hisobga olinadi. Hay‘at turar joy va lager qurilishlari uchun er tanlaydi. Ayniqsa, sanitariya holatiga alohida ahamiyat beriladi.

Yaylov sinchiklab tekshirilgandan keyin dalalar ayrim turdosh va guruhdagi hayvonlar uchun bo‘linadi. Yaylovni tayyorlashda uning sanitariya holatini yaxshilash ya‘ni uni har xil chiqindilardan tozalash, chakalaklarni qirqish, botqoqlashgan erlarni kuritish, tepkilangan joylarni yangilash, mineral o‘g‘itlar bilan o‘g‘itlashga ahamiyat beriladi. Past nam, botqoklashgan yaylovlar gelmintlarning tuxumi va lichinkasidan tozalanishi uchun quritiladi. Xo‘jaliklarda qon parazit kasalliklari uchrab tursa yaylovlardagi chakalakzorlar yo‘qotiladi. Botqoqliklar, cho‘kadigan erlar, chuqur quduq va jarliklar, tashlandiq quduklar hamda ifloslangan kichik suv manbalarining atrofi o‘raladi.

Hayvonlar yaylovda ikki xil usulda, ya‘ni haydab boqish va lager sharoitida boqiladi. Birinchi usulda hayvonlar har kuni yaylovga haydab borilib, kechqurunlari qishki molxonalarga qaytariladi. Lager sharoitida esa hayvonlar butun yoz davomida yaylovda saqlanib, ularni sog‘ish, kechasi saqlash va havo buzilgan vaqtlarida ularni yomg‘ir - sochindan saqlashga sharoit yaratiladi. Mana

shunday usulda hayvonlarni saqlash hamma turdagi hayvonlar uchun ayniqsa gigiena tomondan qo‘l keladi. Chunki hayvonlarni haydash uchun vaqt sarf bo‘lmaydi, qishki binolarni ta‘mirlash va dezinfeksiya qilish uchun imkon tug‘iladi.

Yoz paytlari hayvonlarni saqlaydigan joylar va jihozlangan lagerlar uchun quruq, baland, janubga qarab qiya, shamoldan pana, suvni yaxshi o‘tkazadigan tuproqli va yuqumli kasallik mikrobi bilan ifloslanmagan er tanlanadi. Hayvonlar turadigan erlar sim yoki taxta bilan o‘raladi, suv ichish joylari va oxurlar bilan jihozlanadi. Sigirlarni qo‘shimcha oziqlantirish uchun maxsus maydonchalar ajratilib, unda oxur va boylash uchun jihozlar qilinadi.



1 - rasm. Yaylovlarni yaxshilash maqsadida urug‘ ekish

Hayvonlardan olinadigan mahsulotni ko‘paytirish va ularni har xil kasalliklardan saqlash maqsadida sog‘in sigir, buqa va 6 - oylikkacha bo‘lgan buzoqlar uchun lagerda ochiq yoki yopiq ayvonlar quriladi. Ularda mollar turadigan joylar, oxurlar, avtosug‘orgich, mexanik usulda sog‘ish uchun jixozlar o‘rnatiladi. Lagerlarga yaqin joyda chorvadorlariig yashashi uchun zaruriy binolar quriladi.

Bahorda hayvonlar dalaga yoki lagerlarga haydalmasdan avval har bari alohida ko‘rikdan o‘tkaziladi. Bunda oriq va kasal hayvonlar ajratilib, profilaktika choralari ko‘riladi. Oriq hayvonlar alohida qo‘shimcha oziqalar bilan boqiladi. Kasal mollar ajratilib davolanadi.

Xo‘jaliklarda hayvonlar dalaga haydashdan avval o‘sha kasalliklarga qarshi emlanadi. Hayvonlarni yaylovlarga haydashga tayyorlash davrida tuyoqlari tozalanadi, o‘sganlari kesiladi, shoxdor va suzuvchi sigirlarning shoxlari kesiladi.


Yaylovlardan unumli foydalanish va ba‘zi bnr kasalliklarga qarshi kurashda yaylovlarni zagonlarga ajratish tavsiya etiladi. Bunda yaylov bir necha kichik-kichik bo‘laklarga ajratilib, har bir guruhlar uchun belgilanadi va ular navbati bilan o‘z erlaridan foydalanadi.



2 - rasm. Sun‘iy yaylovlar

Zagonlarda boqish erkin hoida boqishga nisbatan yaylov o‘tlarining hosildorligi yuqori bo‘ladi va hayvonlar maxsuldorligi tez oshadi. Hayvonlar yil davomida ko‘k o‘t bilan ta‘minlanadi. Zagonlarning soni yaylovdagi o‘tlar miqdori, mollar guruhiga qarab o‘rtacha 8 - 10 ta bo‘ladi. Zagonlarni joylashtirishda hayvonlarni haydash, sug‘orish, lagerlarga borishga qulayliklarini hisobga olish zarur.

Madaniy yaylovlarning har biri 3 - 8 gektardan 10 - 12 ta zagonga bo‘linadi va hayvonlar zagonlarda 3 - 5 kun boqiladi. Er tuzilishiga qarab zagonlarni to‘g‘ri to‘rt burchak, uchburchak, to‘g‘ri burchakli qilib bo‘lish mumkin. Zagon usulida boqish hayvonlar orasida uchraydigan oshqozon-ichak qurt kasalliklariga (diktiokaulyoz, gemonxoz, askaridoz, paraskaridoz va boshqalar) qarshi kurashishda muvaffaqiyatli usul hisoblanadi.



3 - rasm. Zagon usulidagi elektr to'siq

Zagonlar ishlatilgandan keyin hayvonlar iste'mol qilmagan o'simliklar 6 - 7 sm qoldirilib o'riladi. Keyin hayvonlardan qolgan tezaklar titilib, tarqatilib yuboriladi. SHunday qilmasa uyulib qolgan tezaklar ichiga quyosh nuri ta'sir eta olmasligi tufayli parazitlar tuxumi va lichinkalari hamda yuqumli kasalliklar mikroblari nobud bo'lmaydi.

Hayvonlarni yaylovlarda boqish erta bahordan boshlanib, kech kuzgacha davom etadi. Hayvonlar er qurigandan va o'simliklarning tomiri erga mustahkamlangandan boshlab yaylovga haydaladi. Tabiiy cho'l yaylovlarida o'tlar 8 - 10 sm o'sganida boqish boshlanadi. Bundan oldin boqish o'tlarning o'sishiga zararli ta'sir etadi va hayvonlarda shamollash hamda oshqozon-ichak kasalliklarining kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Madaniy yaylovlarda o'tlar 15 - 20 sm o'sgandan keyin sigirlar, 10 - 12 sm bo'lganida buzoqlar boqiladi.

Qishloq xo'jalik hayvonlaridan olinadigan mahsulotning mo'l va sifatli bo'lishida oziqa tuyimliliigi muhim ahamiyatga ega. Oziqalar tuyimliliigiga baho bermasdan turib oziqlantirishni to'g'ri tashkil qilish mumkin emas. Hayvonlarni oziqlantirishda o'simliklar dunyosidan kelib chiqqan oziqalar ratsionning asosiy qismini tashkil qiladi.

Oziqalarning kimyoviy tarkibini aniqlash va uning sxemasini bilish ularning tuyimliliigiga baho berishning bir usuli xisoblanadi. O'simlik tanasi bilan hayvon

organizmi sifat jihatidan farq qilsada kimyoviy tarkibi jihatdan ayrim o'hashliklari mavjud. Har ikkala organizmda ham Mendeleev davriy sistemasidagi barcha elementlar mavjud bo'lib, ularning asosiy qismini uglerod, vodorod, kislorod va azot tashkil etadi. O'simliklar o'rtacha 45 % uglerod, 42 % kislorod, 6,5 % vodorod, 1,5 % azot, 5 % mineral moddalardan tashkil topsa, hayvon tanasida 63 %,uglerod, 14 % kislorod, 9,5 % vodorov va 8,5 % mineral moddalardan tashkil topgan.

Oziqada qancha quruq modda kam bo'lib, suvi ko'p bulsa tuyimliliigi past bo'ladi. Oziqalarni edirishga tayyorlashda ayrim texnologik xususiyatlarida suv miqdorining ahamiyati katta. Masalan: aralashtirishda, granula va briket tayyorlashda. Ayniqsa saqlashda suv miqdori ko'p bulsa oziqa tez buziladi va har xil mikroorganizm va bakteriyalar rivojlanishiga sharoit yaratiladi. Quruq modda tarkibi mineral va organik moddalardan iborat bo'lib, mineral moddalarga fosfor, magniy, kaliy, temir mis, kobalt va boshqalar, organik moddalarga protein, yog', kletchatka, azotsiz ekstraktiv moddalar va vitaminlar kiradi.

Mineral moddalar organik moddalar singari energiya manbai bo'la olmaydi. Mineral moddalarning hazmlanishi uchun ma'lum darajada energiya sarflanadi. Ma'lum bir darajada hayvonlarning suvga bo'lgan talabi oziqadagi suv orqali ham qondiriladi. Hayvonlarning suvga bo'lgan talabi hayvon turi va fiziologik holatlariga qarab belgilanadi. Masalan: qoramollar oziqa tarkibidagi har 1 kg quruq modda xisobiga 4-7 kg suv talab qiladi.

Hayvonlarning suvga bo'lgan talabi havo haroratiga ham bog'liq bo'ladi. Qoramollar $+4^{\circ}$ haroratda har bir kg quruq moddaga 3 kg, $+26-27^{\circ}\text{S}$ haroratda 5,2 kg; $+32^{\circ}\text{S}$ haroratda 7,3 kg suv istemol qiladi. YUqori mahsuldorli sigirlar havoning juda issiq paytida 130 l gacha suv ichadi.

Isamuxamedov S., O.Kuchchiev va boshqalar (2013) aniqlashicha keyingi yillarda donador oziqalar, briketlar va pichanni faol ventilyasiya bilan quritish kabi ilg'or usullarni ko'pgina ilg'or xo'jaliklar keng qo'llamokdalar. Oziqalarni mollarga berishdagi kamchiliklarga to'liq eyilmasligi, saqlash va tashishdagi yo'qotishlar, to'yimli moddalar bilan balanslash ishlarining qiyinlashishi kabilar

kiradi. Bundan tashqari, ko'p komponentli ratsionlarda ko'pgina qishloq xo'jalik va sanoatdagi ikkilamchi mahsulotlardan (somon, siqib suvi olingan qoldiqlar) etarli darajada foydalanishga eri shib bo'lmaydi. Shuningdek, proteinning etishmasligini to'ldiruvchi karbomiddan xam yaxshi foydalanilmaydi.

Oziqa ishlab chiqarishda briketlar, donador oziqalar, taxtakachlangan pichan, o't uni, namligi yuqori ko'k oziqalarni kimyoviy moddalar bilan konservalash, faol shamollatish yo'li bilan pichanni quritish kabi ilg'or usullar keng qo'llanilmokda.

Oziqalar briket yoki yirik qilib maydalangan tabiiy holdagisiga nisbatan, ratsionda donador holdagisidan foydalanilganda, so'lak ajralish 3-5 marta kamayadi, oshqozon oldi yulidan o'tishi 2-2,5 marta tezlashadi, oziqaga mikroorganizmlarning ta'sir ko'rsatishi qisqaradi.

Donador oziqalardan foydalanish mollar ratsionini tuyimli, mineral moddalar bilan boyitishda hayvonlar mahsuldorligini oshirishdagi eng samarali vositalardan biridir. Ratsionlarni energiya, hazmlanadigan protein, kalsiy, fosfor, osh tuzi va karotin bilan balanslash etarli emas. Bunda o'rni almashmaydigan aminokislotalar, yog' kislotalari, uglevodlar, kletchatka, mikroelementlar va vitaminlarni hisobga olib, ratsion tuzish lozim deb topilmokda. Turli tuman elementlarga bo'lgan hayvonlar ehtiyojini, oziqalar tarkibida etishmaydigan komponentlar bilan boyitilgan donador oziqalar bilan boqib qondirish mumkin.

Donador oziqalar tayyorlash jarayonida issiklik va mexanik ta'sirlar natijasida oziqa tarkibidagi uglevodlar va yog'larda o'zgarishlar bo'ladi. Konsentratlar donador qilinayotganida barcha komponentlar yaxshi aralashadi. Bunday aralashmalarni donador qilish sochma holatdagi omixta emlarga nisbatan qo'shimcha foyda beradi. Tarkibida 20% somon va 44,5% suvi siqib olingan quruq lavlagi turpi bo'lgan donador oziqa eng samarali ekan. 20 % somon bo'lgan donador oziqa bilan boqilganda kunlik et olish 1121 g, 30 %lida 1075 g, 40% lida 1040 g bo'lgan. Donador oziqa tarkibida somon miqdorining oshib borishi et olishning pasayishiga olib keladi.

Mamatiminov Sh.K., 3. Tulaganova, K. Nazirov, Yo. Karimovalar aniqlashicha (2013) halkimizni chorvachilik mahsulotlari bilan ta'minlashni yanada yaxshilashga ayrim muammolar butun chorvachilik sohasining rivojiga halaqit bermokda. Bu hayvonlarni to'g'ri oziqlantirmaslik oqibatida kelib chiqadigan bir necha xil kasalliklardir. SHunday kasalliklardan mikroskopik zamburug'lar (mikomitsetlar) bilan zararlangan oziqalarni hayvon eganda kelib chikadigan zaharlanishni keltirish mumkin. Bu oziqa mikotoksikozlari deyiladi. Mikotoksikozlardan chorvachilikka qorakuya (ustilagotoksikoz) qo'zg'atadigan kasalliklar, fuzaritoksikozlar, staxiobotriotoksikoz va buzulgan, mohorlagan oziqalar bilan zaharlanish eng ko'p zarar etkazadi.

Klavitsepstoksikozda donli va kepaksimon oziqalar, don chiqindilari, butun yoki maydalangan, qorakuya aralashgan omuxta emlar zaharlanish manbai bo'lishi mumkin. Kasallik barcha turdagi hayvonlarda uchraydi va u o'tkir hamda surunkali o'tadi. O'tkir zaharlanishda so'lak oqish, og'iz bo'shlig'i shilliq qavatining yallig'lanishi, hazm qilishning buzilishi, ich ketishi, uyquchanlik, holsizlanish, tomir tortish, falajlanishlar kuzatiladi, bug'oz hayvonlarda bola tashlash holati paydo bo'ladi. Surunkali zaharlanishda to'qima, dum, quloq, elin so'rg'ichlari quruq nekrozi kuzatiladi.



4 - rasm. Sifatsiz oziqa bilan zaharlangan sigir

Zaharlanishlarni oldini olish uchun, tarkibida qorakuya saqlovchi oziqalarni tozalanganidan keyin berilishi talab etiladi. Kasal mollar ratsionidan qorakuya aralashgan oziqalar chiqarib tashlanadi. Ichishiga 0,5 % li tanin eritmasi yoki eman daraxti po'stlog'ining qaynatmasi, surgı tuzlar, shilimshiq qaynatmalar beriladi, teri ostiga kofein yuboriladi.

Halqimizning sifatli sut mahsulotlariga bo'lgan talabining yil sayin ortib borishi, sut yo'nalishidagi qoramolchilikning tobora rivojlantirishining taqozo etadi. Ma'lumki, sigirlar sut mahsuldorligi ortgan sari ular oziqa ratsionining sifati va to'la qiymatligi yuqori bo'lishiga e'tibor qaratiladi.

Kalashnikov A.P. sog'in sigirlar ratsionida qand-protein nisbatini 0,8-1,1:1 teng, kraxmalning qandga bo'lgan nisbatini esa 1,5:1 teng bo'lishi kerak deb ta'kidlaydi. YU.A. Tolokonnikov esa uchuvchan yog' kislotalarining kerakli nisbati va miqdorini ta'minlash uchun qand-protein nisbatini qish mavsumidagi ratsionda 1,3:1,0, yozgi ratsionda esa 0,8-1,0 ga teng bo'lishi kerakligini qayd qiladi. Sutdorlik ortgan sog'in sigir ratsionida qand va kraxmalning miqdori ortib boradi.

Kunlik ratsionning energetik to'yimlilik, hayvonning organik va mineral moddalar, vitaminlar hamda boshqa biologik faol moddalarga bo'lgan talabi kun davomida tarkibidagi quruq modda orqali qondiriladi. Ratsionda talab qilinadigan quruq moddaning miqdori sigirning sutdorligiga qarab ortib boradi.

Sutdor sigirlar oziqa me'yorida makroelementlardan kalsiy, fosfor, natriy, xlor, magniy, kaliy va oltingugurt; mikroelementlardan temir, mis, rux, kobalt, marganets va yod miqdori nazorat qilinadi. Sutdor sigirlar organizmida mineral moddalar almashinuvini me'yorda borishi uchun ma'lum miqdorda mineral moddalarni talab qiladi. Yosh sigirlar esa bundan tashqari o'sish va rivojlanishi uchun ham qo'shimcha mineral moddalarga muhtojdir. Sigirlarning makro va mikroelementlar bilan to'liq ta'minlanganligini bilish uchun albatta is'temol qilinadigan oziqalar tarkibidagi makro va mikroelementlarning haqiqiy miqdorini bilish kerak bo'ladi.

Abdolnizozov B., M.Ruzmetov (2013) chorvachilikda mustahkam oziqa bazasini yaratishda makkajo‘xorining o‘rni beqiyosdir. Mollarni oziqlantirishda makkajo‘xorining doni, ko‘k massasi, silosi, quruq poyasi va so‘talari o‘zagidan foydalaniladi. Ayniqsa makkajo‘xorining don qismi barcha turdagi chorva hayvonlariga juda yuqori kaloriyali oziqa hisoblanadi. Makkajo‘xorining bir kilogramm quruq donida 1,34 oziqa birligi mavjud, vaholanki, arpa va sulida tegishli 1,2 va 1,0 oziqa birligi bor, xolos. O‘rta hisobda makkajo‘xori donida 11,2 foiz oqsil, 71,2 foiz kraxmal hamda 4,9 foizgacha yog‘ mavjud. SHu sababli ham makkajo‘xori yaxshi oziqadir.

So‘ngi yillar sut ishlab chiqarish fermerlik, hosildorlik va jamoa fermalarida hamda yirik komplekslarida mujassamlashgan bo‘lib, ularda sigirlarni asrashning asosan 3 usuli qo‘llaniladi: molxonalarda bog‘lamasdan boqish vamolxonalarda bog‘lovsiz bokslarda boqish. Lekin ko‘pincha molxonalarda bog‘lovda boqish usuli va ayrim fermalarda bog‘lovsiz bokslarda boqish usullari qo‘llaniladi. Bog‘lovda boqish usulida sigirlarga qish kunlari hajmdor oziqalar molxonaning ichida oxirlarda tarqatiladi.

Sog‘in sigirlar uchun qish fasli ratsionlarida dukkakli, boshqali o‘t pichani, tabiiy yaylovlardan olingan pichan, baxorgi ekinlar poxoli, paxta sheluxasi, silos, senajlar va ildizmevalar yaxshi oziqa hisoblanadi. Ratsionning energetik to‘yimlilikini oshirish uchun arpa, suli, dar, makkajo‘xori donlari yorma sifatida, paxta shroti, bug‘doy kepagi singari konsentrat oziqalar qo‘llaniladi. Ratsionning proteinli va vitaminli to‘yimlilikini oshirish uchun dukkakli o‘tlardan tayyorlangan o‘t uni yoki soyadan quritilgan, yaproqlari to‘kilmagan pichanlardan tayyorlangan vitaminli pichan unlaridan foydalanish ham yaxshi natija beradi. Vino va pivo zavodlari chiqindilari ham sog‘in sigirlarda sutni ko‘paytirish xususiyatiga egadir.

Yaxyaev B., Q.Haydarov, I.Qo‘zievlar (2013) ma‘lumotlariga ko‘ra sut beruvchi qoramollar mahsuldorligini oshirishning zaruriy shartlaridan biri to‘liq qiymatli oziqlantirishni tashkil etishdir. Oziqlantirish hayvon organizmiga,

jumladan o'sishi va rivojlanishiga, sog'ligi, takroriy ishlab chiqarish funksiyasi, modda almashinuvi va mahsuldorligiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Ratsionning to'liq qiymatliligini ta'minlashda mineral moddalar roli benihoya muhim, oziqa tarkibidagi mineral moddalar ikki qismdan ya'ni makro va mikroelementlardan iborat. Mineral moddalar energiya berish qobiliyatiga ega bo'lmasada, organizmdagi modda almashinuvining barcha jarayonlarida ishtirok etadi. Ratsiondagi oziqalar tarkibidagi kalsiy va fosfor etishmasligi va ularning nisbati buzilishi raxit, osteomalyasiya, osteoporoz, osteofibrio, ofosforos kasallikparini keltirib chikaradi. Kalsiy almashinuvi ichki sekretiya bezlari va vitaminlarga bog'liq. Fosfor kavshovchilar kattaqornidagi mikroorganizm faoliyati uchun muhim sanaladi. Mineral moddalar ichida organizm uchun mikroelementlar: temir, mis, kabalt, yod, margenets, rux, va molibden ham hayotiy zarur hisoblanadi. Oziqa tarkibidagi mineral moddalarning saqlanishi ko'plab omillar ta'sirida o'zgarib turadi. Jumladan tuproq tarkibi, o'g'itlanish darajasi va xokazo. SHuning uchun ratsion to'liq qiymatliligini ta'minlash uchun fasllar buyicha tekshirib turish maqsadga muvofiq.

Allashov B., S.Jamolovlar (2013) yozishicha oxirgi yillarda chorvachilikka va oziqabop em-xashak ekinlar urug'chiligiga ixtisoslashgan fermer xo'jaliklarda xashaki lavlagi juda kam miqdorda etishtirilmoqda. CHorva mollari sut mahsuldorligini oshirishda xashaki lavlagining ahamiyati katta hisoblanadi. Xashaki lavlagi shirali, engil hazm bo'ladigan va tuyimli oziqa xususiyatiga ega. SHuningdek, xashaki lavlagi chorva mollari organizmida dag'al xashakning yaxshi hazm bo'lishiga yordam beradi. Uning tuyimlilik qiymati chorva mollari organizmi uchun zarur moddalar: uglevodlar, azotsiz ekstraktiv moddalar, mineral tuzlar va vitaminlar saklaydi. Ma'lumki xashaki lavlagi ikki yillik o'simlik hisoblanadi. Birinchi yili urug'dan ekilganda ildizmeva beradi. Ikkinchi yili ildizmevadan ekilganda ildizmevalar urug' beradi.

Chorvachilik fermer xo'jaliklari erlaridan har yili 25-40 tonnalab oziqabop ekinlar etishtirilib, olib chiqib ketiladi. Ular tarkibida albatta o'nlab kilogramm makro va mikroelementlar tuproqdan o'zlashtiriladi. Azot, fosfor, kaliy elementlari

mineral o'g'it sifatida qisman qaytariladi, magniy, titan, temir, marganets, kalsiy va boshqa zarur kimyoviy elementlar o'rniga qaytarilmagan holda daladan o'zlashtiriladi. Tuproqdagi etishmayotgan makro va mikroelementlarni bentonit solish bilan boyitish mumkin, hamda tegishli ravishda ushbu dalada etishtirilgan ko'k oziqalar tarkibida mikroelementlar miqdori ham ortadi.

Sindorov Q., A.Bobaeva, Sh.Sindorovlar (2013) ma'lumotlariga ko'ra Respublikamizda mavjud 23,1 mln ga yaylov va pichanzorlarning 17,5 mln ga maydoni chul yaylovlari sifatida chorvachilikda foydalanilib kelinmoqda. Keyingi yillarda yaylovlarda yuzaga kelayotgan inqirozlar tufayli yaylovlarning yalpi hosildorligi oxirgi 5 yil maboynida o'rtacha 2,4 s/ga dan 1,84 s/ga yoki 21 %ga pasaygan. Vaholanki 1 bosh quyni 1 yil maboynida oziqa bilan ta'minlash uchun kamida 3-4 gektar yaylov yoki 800-850 kg quruq oziqa zarur bo'ladi. Bundan tashqari ba'zi yillarda qish maboynida chorva mollarini 40-50 kunlab yaylovga chiqarish imkoniyati bo'lmaydi. Bunday vaqtlarda kafolatlangan em-xashak bilan ta'minlash o'ta zarurdir.

Yaylov sharoitida sog'in sigirlarni laktatsiyaning ayrim davrlarida oziqlantirishning alohida xususiyatlaridan biri bu davrda ratsionning to'yimli moddalari sut hosil bo'lishi uchun sarflangan energiyaning o'rnini qoplay olmaydi va organizm tanadagi zahira holidagi to'yimli moddalardan foydalanadi. Bunday paytda yangi tuqqan sigirlarni iloji boricha tanasidagi tuyimli moddalarni sarf bo'lishini kamaytirib qolmasdan ularni genetik sutdorligini ham ruyobga chiqarish kerak.

3.2. Yaylov tiplari va ularning asosiy oziqabop o'simliklari

Har bir muayyan xududda mavjud yaylov maydonlariga xos bo'lganidek, qurg'oqchil sharoitlarda tarqalgan tabiiy yaylovlar ham o'ziga xos bir talay xususiyatlarga ega.

Ularning asosiylari quyidagilar:

1. Yaylov hududlarining oziqa zahiralari foydalanish nuktai nazaridan mavsumiy harakterga ega;

2. Yaylovning oziqa zahiralari yillar va yil mavsumlari bo'ylab o'ta o'zgaruvchan;

3. Yaylovlardan unumli foydalanishning muhim shart-sharoitlaridan biri ularning suv manbai (quduq, quvur, skvajina, vodoprovod) bilan ta'minlanishi hisoblanadi.

4. Ob-havo noqulay kelganligi oqibatida oziqa zahiralari tanqisligi sababli chorva mollarining asosiy boqish xududlaridan vaqtinchalik boshqa hudud yoki boshqa yaylov maydonlariga ko'chirilishining zarurligi. (Maxmudov M.M., 2010).

Tabiiy yaylov va pichanzorlarda tarqalgan o'simliklar miqdori 10-11 ming turni yoki barcha turlarning 60 %ga yaqinidan iborat. Ular 133 botanik oilaga mansub bo'lib, 46 oilasi eng ko'p tarqalgan turlardir.

Biroq, faqat 12 oilaga yaqini eng boy hisoblanadi. Ularning yaylov va pichanzorlardagi ulushi 80 %dan kam emas. Botanik oilalar bo'ylab turlarning taqsimlanishini tahlil qiladigan bo'lsak, ular quyidagicha taqsimlangan: eng ko'p astragullar 1800-2200 tur, dukkaklilar 800-1000 tur, qo'ng'irboshlilar 600-700 tur, boshqa oilalar 450dan 500 turgacha.

Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, tabiiy yaylov va pichanzorlar tarkibida uchraydigan eng ko'p turlar g'alladoshlar (25 %gacha), murakkabguldoshlar (15-20 %). Ulardan keyingi oilalar-dukkakdoshlilar, sho'radoshlar, atirguldoshlar, karamsimonlar, soyabonguldoshlar va h.k.

Turlarning eyiluvchanligi nuqtai nazaridan taxlil qiladigan bo'lsak quyidagi manzara namoyon bo'ladi: Hozirgi kunga qadar 5000 turga yaqin o'simlikka e'tibor qaratilib, turli darajada baholangan bo'lsa, ularning 29% yaxshi eyiladigan, 27%-i konikarli, 16%-i yomon va 28%-i eyilmaydigan turlarga ajratilgan.

Endi O'zbekiston territoriyasida tarqalgan o'simliklarning o'rganilganlik holati va oziqaboplik tomonlari haqida bir necha so'z.

Professor O.X.Xasanov ma'lumotlariga asosan O'zbekiston florasida 4500 turga yaqin gulli o'simliklardan tashkil topgan bo'lib, jumladan, ularning orasida oziqaboplik ahamiyatiga ega turlar ham talaygina. CHunonchi, 50 botanik oilaga

mansub 302 turdosh va 1500 tur o'simlik oziqaboplik ahamiyatiga ega. Biroq, xozirgi kunga qadar ularning 650 turiga oid ma'lumotlar olingan.

O'z navbatida, bularning orasida qimmatli, a'lo darajada eyiladiganlarining soni 550 turga yaqin; qolgan turlar qoniqarli, kam yoki mavsumiy eyiladigan turlar jumlasiga kiritilgan.

Respublikamiz yaylovlarida qayd etilgan 1500 turdan ortiq o'simlikning 345 turining kimyoviy tarkibi, 212 turining mineral, vitaminlar tarkibiga oid ma'lumotlar aniqlangan va to'plangan. Biroq, talaygina turlarning biomorfologik, bioekologik, tarkibiy-funksional xususiyatlari ham kam o'rganilgan.

Demak, 50 turga yaqin oziqabop o'simliklar nisbatan to'liqroq o'rganilgan bo'lsa, qolganlari endi o'rganilish arafasida.

Har bir turga mansub oziqabop o'simliklarni oziqaboplik jihatdan baholashning kompleks usuli qabul qilingan bo'lib, odatda, kimyoviy tarkibi, eyiluvchanlik, to'yimlilik, hazm bo'luvchanlik, oziqabop moddalarning hayvonlar organizmida singishi, o'simlik massa-sining texnologik va biologik sifatlari, fermentativ aktivligi, hosildorligi, hosildorlikning yil mavsumlari bo'ylab taqsimlanishi, foydalanish davomiyligi, saqlash muddatlari, mahsulot olishdagi ulushi kabi talay ko'rsatkichlar asosida baholanadi.

Bular orasida eng muhimlari-eyiluvchanligi, oziqaviy qiymati, hazm bo'luvchanligi, hosildorligi (biologik va xo'jalik) kabilar eng asosiylari hisoblanadi.

Eyiluvchanlik - deb har bir turning hayvonlar tomonidan istemol qilish hoxishiga aytiladi. O'simlikning, ayniqsa, u yangi tur bo'lsa, eyiluvchanligini aniqlash o'ta muhim va zarur masala hisoblanadi. Yangi tur o'simligining eyiluvchanligini aniqlash uning kimyoviy tarkibini aniqlashdan ham muhimroq hisoblanadi.

O'simliklarning eyiluvchanligi bir talay shart-sharoitlarga bog'liq. Ular quyidagilar: anatomorfologik xususiyatlari; o'sish fazasi; botanik tarkibi va o'tloqlardagi mo'l-qo'lligi; o'simlikning bo'yi; o'simlikning kimyoviy tarkibi va hidi; ob-havo sharoiti; suvning mavjudligi va sifati; mineral va boshqa qo'shimcha

oziqlantirishning mavjudligi; o'simlikning rangi; o'simlik ta'm sifati; hayvonning shu oziqaga o'rganganligi; suvdan uzoqlik masofasi, tuproq-iqlim sharoitlari; hayvonning och-to'yimlilik, turi, jinsi, yoshi; organik, mineral o'g'it berilganligi yoki gerbitsidlar bilan ishlanganligi va h-k.

Yirik shoxli hayvonlar odatda yumshoq, nam, shirin o'simliklarni xush ko'rsa, yilqi-otlar quruq, biroz dag'alroq, hidlilarni yoqtiradi; tuyalar esa dag'al, tuzlarga boy, hidli o'simliklarni eydi. Qo'y va echkilar, tuya va otlar eydigan o'simliklarni bemalol eydi. Lekin qo'y-qo'zilarining bu turdagi o'simliklarni tuyalardan farq qilib eyishi shundaki, ular, bu o'simliklarni to'liq, butunlay emasdan, ko'proq eng yumshoq qismlarini qisman yulib olib eydi.

Yaylovda o'simliklarning eyiluvchanlik darajasini aniqlash uchun ma'lum maydonda yaylov hosildorligi mol boqishdan oldin va qoniqarli mol boqilgandan keyin aniqlanishi lozim.

Mol boqishgacha bo'lgan yaylov hosildorligidan mol boqilgandan keyingi ko'rsatkichni ayirish uning foydalanganlik darajasini ko'rsatadi va % hisobida aniqlanadi.

Yaylovda bir necha tur oziqabop o'simlik mavjud bo'lsa, barcha turlarning yalpi eyiluvchanligini yoki har qaysisini alohida-alohida aniqlash vositasida amalga oshirish mumkin.

Shuningdek, har bir o'simlikning eyiluvchanligini aniqlash uchun ma'lum miqdordagi oziqani tarozida tortib va maxsus kletkalarda saqlanuvchi mollarga bevosita edirish va eyilgan sarqit-qoldirilgan farqni hisoblash orqali amalga oshirilishi mumkin.

O'simliklarning to'yimlilik qiymati eng muhim ko'rsatkichlardan hisoblanadi. Bu jihatdan o'simlikni baholash uchun kimyoviy tahlil amalga oshirilib, dastavval, oziqa tarkibidagi quruq modda va suv miqdori aniqlanadi. So'ngra quruq modda tarkibida kul miqdori aniqlanib, qolgan qismida protein, oqsil, yog', kletchatka, AEM miqdori aniqlanadi. Zaruriyat bo'lganda makro va mikroelementlar (Sa, R, K, S1, Na, Fe, Mg) aniqlanadi. Protein tarkibi ham (oqsil, aminokislotalar, amidlar) va AEMlar (eruvchan uglevodlar, kraxmal, pentozan va

xh.k.) aniqlanishi maqsadga muvofiq. Karotin va boshqa vitaminlar, toksinlar, aromatik moddalar miqdori aniqlansa yana ham yaxshi.

Oziqaning to'yimlilikini aniqlashda bir necha usullar qo'llaniladi;

- kraxmal ekvivalenti bo'yicha; kraxmal ekvivalenti deyilganda mahsulot hosil bo'lish va hayvon organizmi hayotini saqlashga sarf bo'lgan energiyaning kraxmal energiyasi miqdoriga bo'lgan nisbati tushiniladi. Toza energiya miqdori jihatdan 1 kg kraxmal 9895 kDj yoki 2356 kkal ga teng bo'lib, hayvon tanasida 248 g yog' hosil bo'lishiga teng.

- oziqa protein birligi - bu usul oziqalarni kompleks baholanganda qo'llaniladi, jumladan, iktisodiy hisob-kitoblarda bu usul oziqaning energetik jihatdan ta'minlanishidan tashqari uning tarkibida hazm bo'luvchi proteinni ham aniqlash imkonini beradi.

- shakar-protein nisbati bo'yicha - bu asosan yuqori mahsuldorli sigirlarni boqishda qo'llaniladi.

- eng keng qo'llanilgan usul bu oziqa birligini aniqlash usuli hisoblanadi. Oziqa birligi sifatida 1 kg suli qabul qilingan. 1 kg sulining to'yimliliği 6048 kDj yoki 144 kkalga yoki 0,6 kraxmal ekvivalentiga teng.

- hozirgi kunda butun jahonda oziqalarning energetik to'yimlilikini aniqlash usuli ko'proq qo'llanilib kelinmoqda.

Oziqaning to'yimligi, dastavval, uning tarkibidagi protein miqdori bilan belgilanadi. Masalan: shu jihatdan qaraydigan bo'lsak, proteinga eng boy (25 %) zamburug'lar hasoblanadi, keyin karamsimonlilar (20,4 %), dukkakdoshlar (18,4 %), tollar (17,6 %) keladi. Murakkabguldoshlar, g'alladoshlar (10,4 %), hamda lishayniklar (4 %) protein miqdori jihatdan eng so'ngi o'rinlarni egallaydi.

Protein miqdorining o'zgarishi, mazkur turlarning o'sish sharoitlari bilan belgilanadi. Protein va boshqa moddalar miqdori o'simlikning o'sish fazalari bilan, shuningdek, shimoldan janubga qarab borishda ham o'simliklar tarkibidagi protein ortaboradi. Bunday o'zgarishlar bir xil turlarda unchalik kuchli emas, boshqa birlarida esa juda sezilarli bo'ladi.

Umuman, o'simliklarning yosh, endigina maysalagan paytida protein, umuman, foydali moddalar miqdori eng yuqori bo'ladi, tana dag'allasha borganligi sababli unda klechatka miqdori ortib protein kamaya borishi kuzatiladi.

Masalan, efemerlarni olaylik: ularning aksariyatida ko'kat xolida, boshqoq chiqargunga qadar oziqasi tarkibida 25-30 % gacha protein bo'lishi mumkin; quruq holda protein miqdori 3-6 % gacha tushib ketadi.

Oziqa tarkibida aminokislotalar miqdorining mavjudligi ham muhim ko'rsatkichdan hisoblanadi. Aminoqislotalar tarkibi ham har-xil o'simliklarda har xil, albatta. Aksariyat cho'l o'simliklari oziqasi tarkibida lizin, gistidin, sistin kabi aminoqislotalar etarli miqdorda bo'ladi.

Oziqa tarkibida miqooelementlarning miqdori ham muhim rol o'ynaydi. Hayvonlar organizmida ularning miqdorining etishmasligi yoki me'yoridan ortiq bo'lishi ularning sog'ligiga ziyon keltiradi. CHunonchi, marganetsning etishmasligiga mineral moddalar almashi-nuvini yomonlashtirsa, mis tanqisligi esa gemoglobin sintezini pasaytiradi. O'simlik tarkibida, mg/kg hisobida miqooelementlar miqdori quyidagi rakamlardan past bo'lsa, tanqis deb tan olinadi: marganets 30 mg/kgdan kam, mis - 5, bor - 2, molibden - 2, kobalt 0,2 mg/kg bo'lsa optimal hisoblanadi.

Ko'pchilik dukkakdoshlarga mansub o'simliklarda mikroelementlar miqdori optimal miqdorda bo'lishi aniqlangan.

Oziqa moddalarning o'zlashtirilishi uning hazm bo'luvchanligidan past bo'ladi. Ayniqsa, u mineral tuzlar miqdori ko'p bo'lgan hollarda ancha past bo'ladi va aralash oziqada organik moddalar miqdori mo'l bo'lganda ko'payadi.

Oziqaning biologik va xo'jalik hosildorligi - odatda yaylovlarda to'planadigan oziqa hosildorligini 2 shaklda aniqlash lozim: 1 - yalpi yoki biologik hosil va 2 - xo'jalik (eyiladigan, foydalanadigan) hosildorlik.

Yaylovlarda tarqalgan o'simliklar, ma'lumki turli-tuman hayotiy shakllar, botanik guruhlar va oilalardan tashkil topgan bo'ladi. Ularning to'yimliliigi, oziqabopligi xususiyatlari ham bir xil emas. Shu boisdan o'simliklarni oziqaboplik

xususiyatlariga qarab 5 guruhga bo'lish qabul qilingan ya'ni dukkaklilar; g'alladoshlar; osoki; turli o'tlar hamda zararli va zaharlilar.

Bular orasida dukkaklilar oziqabopligi jihatidan yaxshi va a'lo oziqalar hisoblanadi; g'alladoshlar yaxshi va qoniqarli oziqalar; va turli o'tlar yomon oziqalar (biroq ularning orasida o'z oziqaviy to'yimliliigi va eyiluvchanligi jihatidan g'alladoshlar hatto dukkaklilardan ham yuqori bo'lgan turlar ham mavjud). Har bir guruhining yalpi o'tini baholashda ularni o'z navbatida 2 kichik guruhga ajratilib baholanadi.

Bu usulda baholanganda dukkaklilar va g'alladoshlarning birinchi kichik guruhiga osokalar ikkinchi (qoniqarli) guruhga kiritiladi va x.k.

Shuningdek, o'simlik qoplami va uning o'sish sharoitining batavsil tahlili mazkur maydonlari kamchilik baholash, shu jumladan, o'simlik holatini yaxshilashga qaratilgan yuzaki yoki tubdan yaxshilashga qaratilgan

Yaylov sifatida foydalanilgan aksariyat maydonlarning yana bir o'ziga xos xususiyati shundaki ularning o'simlik qoplami turli - tuman turlardan iborat bo'ladi. Qorako'chilikda foydalanib kelinayotgan tabiiy yaylovlar ham shunday xususiyatlariga ega. Shunday ekan, ularning oziqabopligini aniq baholash uchun ushbu o'simlik qoplamiga yalpi baholash usulini qo'llash talab etiladi. Oddiyroq qilib aytadgan bo'lsak, muayyan maydonda tarqalgan o'simliklar tarkibi dukkaklilar, g'alladoshlar, turli o'tlardan iborat bo'lsa bunday maydonning oziqaboplik xususiyatlarini faqat unda ustivorlik qiluvchi guruhlar hisobidagina emas balki uni tashkil qiluvchi har bir tur va guruhlarining yig'masidan iborat baholash mahsuli bulmog'i lozim.

Bu o'rinda, dastavval, mazkur o'simlik qoplami umum tavsifi (turlar tarkibi, har bir turning guruhdagi ulushi, yalpi va eyiladigan hosildorlik, 1 ga maydondan olinadigan oziqa birligi, hazm buluvchan protein va boshqa muhim oziqalar) va muhitning bayoni (makro va mikro relf, tuproq sharoiti) keltiriladi.

Ushbu tartibda to'plangan ma'lumotlar mazkur o'simlik qoplami qanday usulida yaylov yoki pichanzor samarali foydalanish, foydalanish muddati yoki pichan foydalanish lozimligini aniqlash imkonini beradi.

Cho'l sharoitiga moslashgan oziqabop o'simliklarning o'ziga xosligi cho'l yaylovlaridan foydalanish mavsumiyligini belgilaydi.

Cho'l bilan tanish har-bir insonga yaxshi ma'lumki, har-bir turdagi oziqabop o'simliklar yil mavsumlari bo'ylab turlicha eyiladi. Chunonchi, ko'pchilikka yaxshi tanish shuvoqni olib ko'raylik. E'tibor kilinsa, u kuz-qish oylari yaylovda a'lo darajada eyiladi; bahorda-juda kam, yozda esa faqat majburan, boshqa eyiluvchan turlar bo'lmagan taqdirda eyilishi mumkin.

O'xshash manzarani yana bir muhim guruh - bir yillik sho'ra o'tlar misolida ham yaqqol ko'rish mumkin: ularning aksariyati yaylovda jazirama yoz issiq, sharoitida bemalol o'saversa va yam-yashil bo'lsada aynan shu davrda oziqa tarkibida ko'p miqdorda (18-27 %) tuzlar mavjudligi sababli deyarli eyilmaydi va kuzgi-qishki yog'ingarchilik, past harorat ta'sirida qisman emirilgach qo'y-qo'zilar va boshqa tur hayvonlar tomonidan yaxshi eyiladigan bo'ladi.

Yaylovda eng ko'p tarqalgan efemer va efemeroidlar - bir va yillik o'tchil turlar bo'lib, ular odatda cho'lning yog'in-sochin va havo harorati qulayroq (bahor) davrda rivojlanishga moslashgan oziqabop guruh hisoblanadi. Ularning rivoji odatda kuz oylari boshlanib, qish izg'irinlari boshlanishi bilan o'sishi sekinlashadi yoki butunlay to'xtab qoladi.

Bahor boshlarida ularning gurkirab o'sib-rivojlanish davri avjiga chiqadi va shu davr davomida (aprel-may) urug' hosil qilishga ulguradi va o'z vegetatsiyasini tugatadi.

O'z o'sish davrini o'tib bo'lgan bir xil (qo'ng'irbosh, ilak) pichan holida uzoq vaqt yaylovlarda saqlanib tursa, boshqa bir xil turlar tezda shamollar yordamida yoki mollar tuyog'i ta'sirida parchalanib, «xas» holida foyalanadi.

Efemerli yaylovlarning eng muhim fazilati va ustunligi shundaki, ular qorako'l zotli qo'ylar uchun eng to'yimli va ko'kat bilan ta'minlovchi bahorgi va yozgi o'tloqlar hisoblanadi. Chunonchi, protein, karbonsuvlar, vitaminlarga boyligi jihatidan cho'l yaylovlarida ko'klam faslida, ularga tengi yo'q desa ham bo'ladi. Bu davrda barra o'tlar nuqul shirali va oziqa moddalarga boy bo'lganligi tufayli barcha turdagi uy hayvonlari va yovvoyi mollarni semirtiruvchi oziqa hisoblanadi.

Efemerli yaylovlarning oziqa zahiralari ko'klamning gidrotermik rejimi bilan bevosita bog'liq bo'lib, yillar bo'ylab keskin o'zgaruvchan hisoblanadi: ob-havo qulayliklariga qarab uning miqdori gektaridan 0,5 sentnerdan ham kam bo'ladigan bo'lsa, ayrim yillariga unga nisbatan 15-16 baravar ko'proq bo'lishi mumkin.

O'rta yilga nisbatan efemerli yaylovlarning oziqa zahiralarining o'zgarishini ayrim tadqiqotchilar qo'yiidagicha tariflaydilar: o'ta ser hosil yil 250 %, serhosil yil – 160, o'rta yil – 100, kam hosil – 50 va o'ta kam hosil – 25 %.

Efemerli yaylovlarning eng katta nuqsoni ularning qisqa muddatli yaylov tipi ekanligi hisoblanadi. Butun yil davomida ulardan unumli foydalanish maqsadida chunonchi, kuz-qish oylari mol boqish uchun buta va yarim butalar vakillaridan foydalanib ularning mahsuldorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni qo'llashni taqoza etadi.

Umuman olganda, efemer va efemeroidlar va ayrim yarim butalarni (izen, keyreuk, singren) hisobga olmaganda, butun yil davomida bir xilda yaxshi eyiladigan turlarni cho'l sharoitida topish ancha qiyin.

Yaylovlardan to'g'ri va samarali foydalanish masalasida ularni klassifikatsiyalash, ya'ni, tiplar, tip guruhleri, klasslarga ajratish masalalari muhim ahamiyat kasb etadi.

Yaylov tiplari deganda ma'lum botanik tarkib, rivojlanish ritmi va fitotsenotik tuzilishdagi o'simlik guruhleri qoplami tushiniladi.

Har bir yaylov tipi o'ziga xos ekologik muxit sharoitida tarqalgan bo'lib, ulardan foydalanish xususiyatlari jixatdan ham bir-biridan farq qiladi. Oddiyroq qilib aytadigan bo'lsak yaylov tipi o'simlik qoplamining ma'lum fizik -geografik sharoitida tabiiy-tarixiy rivojlanish jarayonining natijasi desa bo'ladi.

Chorvachilikda foydalaniladigan barcha yaylov maydonlari asosan 4 tipga bo'linadi:

- efemer va efemeroidli yaylov tipi;
- buta-barra o'tli yaylovlar;
- yarim buta-barra o'tli yaylovlar;

- sho'ra o'tli yaylov tipi.

Efemer va efemeroidli yaylov tipi asosan bo'z tuproqlardan tashkil topgan adir mintaqasiga xos; buta-barra o'tli yaylovlar aksariyat qumli cho'l mintaqalariga xos; yarim buta-barra o'tli yaylov tipi esa respublikamiz bo'ylab keng tarqalgan bo'lib, asosan bo'z, qo'ng'ir-bo'z va zichlashgan qumli tuproqlarda ustivorlik qiladi.

Sho'ra o'tli yaylovlar ma'lum bir geografik xududni eg'allamasdan oldingi barcha tiplar bilan aralash holda asosan turli darajada sho'rlangan maydonlarda tarqalgan.

Efemerli yaylovlarga xos quyidagi biologik-xo'jalik xususiyatlarni qayd qilish lozim: ularning yillik o'sishi, rivojlanishi va oziqa zahiralari to'plashi ob-havoga bevosita, ayniqsa, bahorning gidrotermik rejimiga o'ta bog'liq. Chunonchi, efemerlarning yillik o'sishi ob-havo sernam, bahor iliq kelgan yillari 50-60 sm va qalin; o'rtacha yillarda 20-30; qurg'oqchil, noqulay yillarda 8-20 sm atrofida o'zgarib turadi.


Shu boisdan efemer-efemeroidli yaylovlarning yillik oziqa zahiralari ham keskin o'zgaruvchan bo'lib, yillar, xududlar bo'ylab gektaridan 3,6 sentnerdan 5-7 sentnergacha quruq pichanni tashkil qiladi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, bu tipdagi yaylovlar xo'jalik ahamiyati jixatdan erta bahor va yoz mavsumlarida vitaminlarga boy, sershira ko'katlardan iborat yaylov maydonlari hisoblansa, kuz-qish oylari o'simlik qoplamida yarim buta, butalarning kamchilligi sababli, to'liq ma'noda, serhosil yaylov tipi bo'laolmaydi.

O'simlik turlarining miqdoriga kelsak, ularning umumiy miqdori boshqa yaylov tiplariga qaraganda ancha boy va xilma-xil.

Biroq, bu holat yillar va mavsumlar bo'ylab o'zgaruvchan; ob-havo qulay kelgan yillari ularning yalpi miqdori 40-65 turdan oshadi.

Quyidagi rasmlarda yaylovlarda o'sadigan asosiy o'simliklarning turlari ko'rsatilgan.



5 - rasm. Kavrak



6 - rasm. Shuvoqzor

Yaylovlarda uchraydigan zaharli o'simliklar o'z organlarida zaharli moddalar (alkaloidlar, glyukozidlar, organik kislotalar, efir moylar) saqlovchi va qishloq xo'jalik hayvonlarining sog'ligiga ziyon keltiruvchi, hatto halok qiluvchi turlar nazarda tutiladi. Chunonchi, alkaloidlar – murakkab organik birlashmalar bo'lib

odatda, uglerod, vodorod va azotdan tashkil topgan. O'simlik turlariga qarab alkaloidlar miqdori juda kam miqdordan tortib 3,5 % (kampirchopon)gacha bo'lishi mumkin. Ular o'simliklarning barcha qismlarida bo'lishi mumkin, aksariyat urug' va mevalarida (ko'knor) tanasi (xina daraxti), ildizlarida uchraydi.

O'sish fazasiga qarab alkaloidlar miqdori ham o'zgaruvchan – vegetatsiya davrida barglarda, urug'lash fazasida-urug'lari, vegetatsiya so'ngida-ildizlarda qayd qilinadi.

Alkaloidlarning ta'sir doirasi ham xil: jigar, qon-tomir, nerv sistemasiga ta'sir qiladi.

O'simlik tarkibidagi zaharli moddalar o'simliklarning o'sish sharoiti, rivojlanish davrlari, yoshi, hamda tarqalishiga qarab o'zgarib turadi.


Ko'pincha ho'lligida quriganiga nisbatan havfli. Quritilgan o'simliklarda zaharli moddalarning miqdori hamda ta'sir etishi pasayib boradi.

Yana bir e'tiborli tomoni shundaki, aksariyat tur zaharli o'simliklardan olinadigan zaharli moddalar oz miqdorda dori - darmonli xususiyatiga ega; shu boisdan ular turli tuman dori-darmonlar ishlab chiqarishdan muhim xomash'yo vazifasini o'taydi.

Quyida tabiiy yaylovlarda uchraydigan ayrim zaharli o'simliklarning rasmlari keltirilgan.



7 - rasm. Isiriqning gullash pallasi



8- rasm. Kampirchopon



9 - rasm. Oq quray

3.3. YAYLOVDA OZIQA ZAHIRALARINI ANIQLASH USHLUBLARI

Yaylov xo‘jaligini tashkil etish va yaylovlardan samarali foydalanishning muhim tarkibiy qismlari jumlasiga yaylov oziqa zahiralari (miqdori va sifati) va ulardan foydalanish mavsumini aniqlash masalasi kiradi. Boshqacha qilib aytadigan bo‘lsak, yaylov maydonidan samarali foydalanishning muhim sharti - unda mavjud oziqa miqdorini va uning qanday ulushi boqiladigan hayvon turi hisobidan eiyiladigan qismini aniq hisoblashdan iborat. SHu boisdan ushbu mavzuni mukamal o‘rgatishga o‘ta jiddiy e’tibor berilmog‘i lozim.

Yaylovlarda hosildorlikni aniqlashga oid bajariladigan ishlar odatda 3 bosqichdan iborat bo‘ladi: a) tayyorgarlik ; b) dala ishlari va v) kameral ishlar.

Aksariyat cho‘l va adir yaylovlarida yaylov oziqa zahiralari aniqlashga qaratilgan dala ishlari 2 muddatda – bahor va kuzda amalga oshirish qabul qilingan.

Yaylovlar o‘simlik qoplamini o‘rganish aksarpiyat hollarda quyiidagi maqsadlardan kelib chiqib amalga oshiriladi:

- muayyan xo‘jalik, massiv, yaylov tipining holatini baholovchi sifat va miqdor ko‘rsatkichlarini hisobga olish uchun; buning uchun maxsus geobotaniq otryadlar barpo etiladi.

Eng muhim bosqich dala ishlari quyiidagi tartibda va ketma-ketlikda amalga oshiriladi:

- dala ishlarini tashkil qilish;
- dastlabki tekshirish;
- aniq marshrut bo‘ylab tekshirish.

Dala ishlarini tashkil qilish boskichida geobotaniq otryadni tuzish, vaqtinchalik ishchilarni yollash, jixozlar, materiallarni tayerlash va xo‘jalik raxbarlari bilan bo‘ladigan suhbatlardan iborat. Dastlabki tekshirishda o‘simlik qoplami o‘rganiladi va oldindan belgilangan harakat marshrutlariga aniqliklar kiritiladi va x.k.

Aniq marshrutlar bo‘ylab tekshirish davomida har bir yaylov variantlari aniqlanib ularning chegaralari xaritada belgilanadi:

- har bir yaylov varianti misolida o‘simlik qoplami bayoni yoziladi;
- yaylov hosildorligini aniqlash maqsadida eyiladigan oziqa zahiralari hisob-kitob qilinadi;
- yuqorida bajarilgan barcha yumushlar, punktlari xaritada o‘z aksini topadi.

Shuningdek mazkur yumushlar bilan bir qatorda har bir massiv yoki maydondan foydalanish xususiyatlari, dag‘al xashak tayerlash joylari va usullari, yaylovlarda suv, shamol eroziyasi mavjudligi, yaylov holatini yaxshilash ishlari

mavjudligi yoki ularni amalga oshirish zarurligi va xo‘jalik hodimlarilarining bu yumushlar borasidagi takliflari ham qilinib boriladi.

Quyida yaylovlar hosildorligini aniqlashning umum qabul qilingan ikki usuli mavjuddir..

1. *Transekt usuli* - to‘rt burchagida o‘tkir uchli qoziqlar bo‘lgan tarang tortilgan va ma’lum sathdagi (100, 200, 800 m² va undan ortiq maydonchaga shpagat tortilgan joy transekt deyiladi. Buta, yarim buta, yirik poyali o‘simlik turlari oziqa zahiralarini aniqlash uchun qo‘llaniladi.

Transekt tomonlarining uzunligi yaylov tipi, tekshiriladigan maydon, reliefi va x.k.larga qarab 50 metrdan 400 - 800 metrgacha, eni esa 2 - 4 metrgacha bo‘ladi.

Demak, uzunligi 50 va eni 2 metr bo‘lgan transektning sathi 100 m² (50 m x 2 m = 100 m²); tomonlari 400 va 2 m metr bo‘lgan transektning sathi 800 m² (400 m x 2 m = 800) bo‘ladi.

2. Maydonchalar uslubi - asosan efemer va efemeroidli yaylov tipi. Shuningdek yarim buta-barra o‘tli, buta-barra o‘tli yaylovlarning o‘tchil turlari qatlami hosilini aniqlashda qo‘llaniladi.

Bu usulning bajarilish tartibi qo‘yidagicha: tomonlari 0,71 x 0,71 (0,5 m²) yoki 1 m x 1 m = 1 m² li to‘g‘ri to‘rtburchak maydonchalar (yog‘och ramkalar) tortilgan transekt ichidagi o‘simliklar tuproq yuza qismidagi barcha o‘tchil o‘simliklar tuproq yuzasi qismidan yuqorisi sekator yoki boshqa qirquvchi asbob yordamida o‘rib olinadi. Etiketkalanib maxsus xaltachalarga joylashtiriladi. Ramkachalarni transektida joylashtirish qaytarmasi masalasiga kelsak hosildorligi aniqlashga mo‘ljallangan yaylov variantining transektning uzunligiga qarab kamida 5-10 joyidan ma’lum oraliq qoldirilib amalga oshiriladi. Bu usulda namunalar olinganda yaylovning umumhosildorlik ko‘rsatkichidan tashqari uning to‘yimlilik ko‘rsatkichini ham aniqlash imkoniyati tug‘iladi.

Dala ishlari davomida to‘plangan oziqa namunalari quritilgach texnik tarozida tortilib dastavval 1 m² maydondagi hosildorligi so‘ngra 1 gektar maydondagi hosildorlik aniqlanadi.

4. SIGIRLARNI YAYLOVLARDA BOQISHNI ULARNING MAHSULDORLIGIGA TA'SIRI VA XO'JALIK IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.

4.1. Sigirlarni yaylovlarda boqishni ular mahsuldorligiga ta'siri

Xalqimizni sifatli sut mahsulotlariga bo'lgan talabining yil sayin ortib borishi, sut yo'nalishidagi qoramolchilikning tobora rivojlantirishni taqozo etadi. Malumki, sigirlarning sut mahsuldorligi ortgan sari ular oziqa ratsionining sifatiga va to'la qiymatliligiga talabchan bo'ladi. Sutdor sigirlar organizmida modda almashinuvi jarayoni o'sayotgan molniki va go'shtdor qoramolnikiga qaraganda ham ancha yuqori bo'ladi.

Sog'in sigirlar ratsionida proteinni ahamiyati nihoyatda kattadir. Ularning ser sutligi ko'p jihatdan to'la qimmatli proteinlar bilan ta'minlanganligiga bog'liq. Katta qorindagi biosintez jarayoni esa ratsionni vitaminlar, mineral va boshqa biologik faol moddalar bilan ta'minlanganligiga bog'liqdir.

So'ngi yillarda sut ishlab chiqarish shaxsiy yordamchi, dehqon, fermer, hissadorlik va boshqa toifadagi chorvachilik fermalari hamda yirik komplekslarda mujassamlashgan bo'lib ularda sigirlarni saqlashning turli usullari qo'llaniladi:

Sut ishlab chiqarishni sanoat negiziga o'tkazishda o'z navbatida ratsionda silos va senajni keng ko'lamda qo'llanishni talab qiladi. Senaj silosga qaraganda ikki barobar to'yimlidir. Bundan tashqari dukkakli o'tlar senajida protein, karotin, qand moddasi va fosfor elementlari silosga qaraganda ikki marotabadan ko'p ortiqdir. Sog'in sigirlarni laktatsiyaning ayrim davrlarida boqishning aloxida xususiyatlari – ma'lumki, sersut sigirlar yangi tuqqan paytda sut bilan juda ko'p energiyani ajratadi. SHuning uchun laktatsiyaning birinchi 100 kunida ular energiyaga ko'proq talabchan bo'ladi.

Bu davrda ratsionning to'yimli moddalari sut hosil bo'lishi uchun sarflangan energiyaning o'rnini qoplay olmaydi va organizm tanadagi zahira holidagi to'yimli moddalardan foydalanadi. Bunday paytda yangi tuqqan sigirlarni iloji boricha tanasidagi to'yimli moddalarni sarf bo'lishini kamaytirib qolmasdan ularni genetik mo'ljallangan sutdorligini ham ro'yobga chiqarish kerak.

Sigirlarning sutdorligini oshirishda kunlik sutdorligi bo'yicha belgilangan oziqa me'yoriga qo'shimcha avans tariqasida emish berish kerak. Avans oziqa berilgandan so'ng sigirlar sutdorligi nazorat qilib boriladi.

Sog'in sigirlar kun davomida kletchatkaga boy bo'lgan ko'plab miqdordagi hajmdor oziqalarni oshqozon ichak tizimida hazm qilishlarida meda oldi bo'limlarining hissalarini nixoyatda katta. Bu erdagi mikroorganizmlarning faoliyati uchun esa malum miqdorda ratsionda qand miqdori bo'lishi kerak. A.P. Kalashnikov sog'in sigirlar ratsionida qand - protein 0,8 - 1,11 teng. Kraxmalning qandga bo'lgan nisbati esa 1,5 : 1 teng bo'lishi kerak deb ta'kidlagan.

Sutdorligi ortgan sari sog'in sigirlar ratsionidagi har oziqa birligiga talab qilinadigan qand va kraxmalning miqdori ortib boradi.

Katta qorin mikroflorasining asosiy vazifalaridan biri, kletchatkani hazm qilish va uni energiyasidan foydalanishdir. Sog'in sigirlar ratsionida tozalanmagan kletchatkaning miqdori quruq moddaga nisbatan olinib, sigirning sutdorligi ortgan sari talab qilinadigan quruq modda tarkibidagi kletchatkaning foizdagi miqdori kamaya boradi.

Kunlik ratsioning energetik tuyimlilik, hayvoning organik va mineral moddalar, vitaminlar hamda boshqa biologik faol moddalarga bo'lgan talabi bir kun davomida is'temol qilinadigan oziqalar tarkibidagi quruq modda orqali qondiriladi. Ratsionda talab qilinadigan quruq moddaning miqdori sigirning sutdorligiga qarab ortib boradi.

Sigirlarning me'yorda oziqlanishiga 1 kg quruq moddada mujassamlashgan energiya va boshqa tuyimli moddalar miqdori ham hal qiluvchi ahamiyatga egadir. Shuning uchun sog'in sigirlar ratsionini tuyimli moddalar bilan muvozanatlashtirishda ularning quruq moddaga bo'lgan talabi va quruq modda tarkibida mujassamlashgan energiya va boshqa tuyimli moddalar miqdorini hisobga olish kerak.

Sog'in sigirlar uchun qish fasli ratsionlarida dukkakli, boshoqli o'tlar pichani, tabiiy yaylovlar pichani, bahorgi ekinlar poxoli, paxta sheluxasi, silos, senaj va ildiz mevalar yaxshi oziqa hisoblanadi, Ratsionning energetik

tuyimliligini oshirish uchun arpa, suli, javdar, makkajo‘xori donlari yorma sifatida, paxta shroti, bug‘doy kepagi singari konsentrat oziqalar qo‘laniladi. Ratsionning proteinli va vitaminli tuyimliligini oshirish uchun dukkakli o‘tlardan tayyorlangan o‘t uni yoki soyada quritilgan, yaproqlari to‘kilmagan pichanlardan tayyorlangan vitaminli pichan unlaridan foydalanish ham yaxshi natija beradi. Vino va piva zavodlari chiqindilari barda ham sog‘in sigirlarda sutni ko‘paytirish xususiyatiga egadir.

Yoz davri ratsioning asosini esa ekilgan dukkakli va boshqqli o‘tlar, yaylov o‘tlari, yashil konveyer va madaniy yaylov o‘tlari, qisman yuqorida qayd etilgan konsentrat oziqalar tashkil qiladi.

Tajribalarda aniqlanishicha sog‘in sigirlar ratsionida barcha to‘yimli oziqa moddalarning etarli bo‘lishi oziqlantirish me‘yorida talab qilingan moddalarni ratsionda etkazib berilishi asosida oziklantirilmagan sigirlarning tanasida modda almashinuvini buzilishi natijasida hayvon oziqadan samarali foydalanmaydi. Sut mahsuloti kamayadi, sutning tarkibi va sifati buziladi. Sigir har hil kasalliklarga duchor bo‘ladi. Mana shularni hisobga olib, sog‘in sigirlarni oziqa me‘yori asosida oziqlantirish talab etiladi. Oxirgi ma’lumotlarga ko‘ra sog‘in sigirlarga oziqa me‘yori belgilashda 20 dang ortiq ko‘rsatkich hisobiga olinadi.

Sog‘in sigirlar ratsionida quruq moddaning miqdoriga e‘tibor beriladi. O‘rta hisobda sog‘in sigirning har 100 kg tirik vazniga 2,8-3,2 kg quruq modda to‘g‘ri kelishi lozim. Bu ko‘rsatkich sersut sigirlarga 3,5-3,8 kg govmush-rekordsmen sigirlarga esa 4,0-4,5 kg bo‘lishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Ratsiondagi 1 kg quruq moddaning tarkibida ko‘p energiya bo‘lishi kerak. O‘rta hisobda 1 kg quruq moddada 0,65 oziqa birligi, 25-30 kg sut beradigan sigirlarda esa bu ko‘rsatkich 1,05 ga teng bo‘lishi tavsiya etiladi.

Sog‘in sigirlar ratsionida kletchatkaning miqdoriga ham e‘tibor beriladi. Kletchatkaning miqdori sigirning sut mahsuldorligiga qarab belgilanadi: 10 kg gacha sut bergan sigirga quruq moddaga nisbatan 28 % kletchatka, 11-20 kg sut olinganda 24 % kletchatka, 20-30 kg sut sog‘ilganda 20 %, 30 kgdan ko‘p sut

beradigan sigirga 18-16% klechatka ratsion quruq moddasi tarkibida berilishi kerak.

Sog'in sigirlar ratsionida 1,0 oziqa birligiga 300 - 400 g atrofida kletchatka berilishi lozim. Bu ko'rsatkich ko'p sut beradigan sigirlarda oz miqdorda va kam sut beradigan sigirlarda esa uning teskarisi bo'ladi.

Sog'in sigirlar ratsionida mineral moddalarning etarli bo'lishiga e'tibor beriladi. Sigirlar ratsionidagi har oziqa birligiga quyidagi miqdorda makroelementlardan berilishi tavsiya etiladi. Osh tuzi 6,5-7,5, kalsiy 6,5 - 7,4 g, fosfor 4,5 - 5,5 g, magniy 2,4 - 1,5 g, kaliy 8,1 - 6,7 g, oltingugurt 2,8 - 2,1 g.

Sog'in sigirlar ratsionida protein, yog', karbon suvlar va mineral moddalardan tashqari vitaminlarni etarli bo'lishiga katta e'tibor beriladi. Vitaminlarni etarli bo'lishi sigir organizmida kechadigan barcha fiziologik jarayonlarni me'yorda bo'lishini ta'minlashi bilan birga servitamin sut etishtirishda muhim ahamiyatga ega. Shu sababli sigirlar ratsionida A, D, E vitaminlari hisobga olinadi.

Sog'in sigirlar ratsionidagi shirali oziqalarning miqdori sigirning sut mahsulotiga va fermadagi sharoitga bog'liq bo'ladi. Qish davrida sigirning 1,0 kg sutiga 2-3 kg silos va 1 kg atrofida ildiz mevalilardan berish lozim. Bu ko'rsatkich sigirning har 100 kg tirik vazniga hisoblanganda silos tarkibidagi quruq moda 1,5-1,8 kg ga teng yoki 4-5 kg silos berilishi lozim. Ildiz mevalilardan sigirning 1,0 kg sutiga 0,6-0,8 kg kand lavlagi va xashaki lavlagidan qand lavlagiga qaraganda 2,0-2,5 barobar ko'p beriladi.

Sog'in sigirlarga beriladigan emlarning miqdori sigirning sut mahsuldorligiga, xo'jalikda tayyorlangan dag'al va shirali oziqalarning sifatiga bog'liq bo'ladi. Agar bu oziqalarning sifati yomon, to'yimlilik past bo'lsa, sog'ib olinadigan 1,0 kg sutga shuncha ko'p em sarflanadi.

Xulosa qilib aytganda 2500-3000 kg sut beradigan sigirlar o'rta hisobda ratsion to'yimlilikini ya'ni oziqa birligi bo'yicha 25-30 % dag'al xashaklar, 40-50 % shirali oziqalar va qolgan 20-30 % emlar tashqil etishi kerak.

O'simlikning o'sish fazasi davrida tuyimlik moddalarning to'planish holati va uning haqiqiy tuyimlilikini aniqlash maqsadida, ratsionning asosiy qismini tashkil etadigan oziqalardan makkajo'xori va beda o'tlarining o'sish fazasining turli davrlarda kimyoviy tarkibi va shu asosda umumiy tuyimliliği aniqlangan.

Hayvonlarga ratsion tuzishda oziqaning umumiy tuyimliliği asosiy ko'rsatkich sifatida e'tiborga olinadi. Oziqaning umumiy tuyimlilikini yuqori yoki kam bo'lishi oziqa tarkibidagi organik moddalar miqdoriga bog'liq bo'ladi. Vitamin D va A vitaminlar sut mahsuldorligini oshirish bilan bir qatorda sutni shu vitaminlar bilan boyitadi. Ko'p sut beradigan sigirlar ko'proq vitamin D talab qiladi, agarda etarlik darajada ta'minlanmasa sutning antiraxitlik holati o'zgarishi mumkin.

4.2. Mollarni yaylovda boqishning iqtisodiy samaradorligi

Sigirlarni yaylovda boqisdan asosiy maqsad, ratsionning to'yimlilikini (makroelementlar bo'yicha) ta'minlanishning sog'iladigan sigirlarning sut mahsuldorligiga ta'sirini o'rganishga qaratilgan.

Bunda sigirlar zoti? tirik vazni, yoshi va sut berish davri e'tiborga olinadi. Bu sigirlar uchun yaylovdagi mavjud ozuqalardan ratsion tuzish uchun me'yor belgilanadi. Ratsionni me'yorlashtirishda 1985 yilda A.P.kalashnikov rahbarligida chop etilgan maxsus adabiyot ma'lumotlaridan foydalanildi.

Sigirlar bir xil ratsion bilan oziqlantirildi va rasionning umumiy to'yimliliği, kalsiy, fosfor ta'minoti va mikroelementlar ta'minoti aniqlandi. Tajriba guruhidagi har bir bosh sigirning omuxta yemga 100 grammdan, maxsus tayyorlangan mineral qo'shimchalar DAF qo'shib beriladi. Rasionga mineral qo'shimchalarni kiritish tajriba o'tkazishga tayyorlash davridan 5 kun oldin qo'shib berildi. Tajriba 1 oy davom etgan. Bu davrda guruhdagi sigirlardan olingan sut hisoblab berildi. Sut uchun qilingan umumiy harajatlar, olingan daromad, sof foyda hisoblanib rentabillik darajasi aniqlanadi

Sut beruvchi qoramollar mahsuldorligini oshirishning zaruriy shartlaridan biri to'liq qiymatli oziqlantirishni tashkil etishdir. Oziqlantirish hayvon

organizmiga, jumladan o'sishi va rivojlanishiga, sog'ligi, takroriy ishlab chiqarish funksiyasi, modda almashinuvi va mahsuldorligiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Rasionning to'liq qiymatliligini ta'minlashda mineral moddalar roli benihoya muhim, ozuqa tarkibidagi mineral moddalar ikki qisimdan ya'ni makro va mikroelementlardan iborat. Mineral moddalar energiya berish qobiliyatiga ega bo'lmasda organizimdagi modda almashinuvining barcha jarayonlarida ishtirok etadi.

Mineral moddalar ichida organizm uchun mikroelementlar, temir, mis, kabalt, yod, marganes, rux va molibden ham hayotiy zarur hisoblanadi.

Ozuqa tarkibidagi mineral moddalarning saqlanishi ko'plab omillar ta'sirida o'zgarib turadi. Jumladan tuproq tarkibi, o'g'itlanish darajasi va hokozo. Shuning uchun rasion to'liqqiymatligini ta'minlash uchun fasllar bo'yicha tekshirib turish maqsadga muvofiq.

Organizmda kechadigan barcha jarayonlarning me'yorda bo'lishini ta'minlashda mikroelementlarning roli benihoya muhimligi fizologik va bioximiya fanlari rivojlanishi jarayonida o'z isbotini topgan.

Makro va mikroelementlar miqdorining turli yillarda bir turdagi ozuqalarda ham turlicha bo'lishi yuqorida qayd etilgannidek ko'plab omillarga bog'liq. Bundan tashqari, konservirovka qilinayotgan ozuqalarga o'rishjarayonida qo'shilgan turli xildagi yovvoyi o'simliklar turlari va ularning qo'shilishi miqdoriga ham bog'liq bo'ladi. Ma'lumki, temir mikroelementi gemoglobining hosil bo'lishida, to'qima va hujayralarni kislorod bilan ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Bundan tashqari, temir elementi ayrim turdagi fermentlar tarkibiga kirishi ham aniqlangan. Bu elementning saqlash darajasi ham ozuqalar turiga qarab o'zgargan.

Ko'plab olimlar tomonidan o'tkazilgan ilmiy tajribalardan olingan natijalarda konsentrat ozuqalar tarkibida kalsiyga nisbatan fosfor miqdori ko'p bo'lishi kuzatilgan. Taxlillar shuni ko'rsatadiki, rasion to'liq qiymatliligini ta'minlash uchun rasionga kiritiladigan ozuqalarda nafaqat energiya beruvchi moddalarni, balki mineral moddalarni ham aniqlash zarur.

Poda tuzilishi deganda, fermer podalaridagi mollarning jinsi va yoshi bo'yicha guruhlarining foiz hisobidagi nisbati tushiniladi. Ular qo'ydagi guruhlarga ajratiladi. Nasldor buqa, sigirlar, g'unojindar (ikki yoshdan katta urg'ochi mollar), ikki yoshgacha bo'lgan urg'ochi mollar, bir yoshgacha bo'lgan urg'ochi mollar (urg'ochi buzoq va tanalar), ikki yoshgacha bo'lgan erkak mollar (buqacha va navvoslar), bir yoshgacha bo'lgan erkak mollar (erkak buzoq va buqachalar) va hakoza (bo'rdoqiga qo'yilgan mollar). Fermer xo'jaliklari podalarni tugallangan seklida yoki tugallanmagan sikilida faoliyat ko'rsatishi mumkin. Birinchi sikldagi podada sigirlar bilan birgalikda yosh mollar podani ta'minlash va go'shtga sotish maqsadida parvarish qilinadi. Bu texnologiyada go'sht uchun mo'ljallangan yosh mollar jadal boqilib, 15-18 oyligida go'shtga sotiladi va podpdpgi sigirlar salmog'i 40-45 % ni tashkil etadi. Ikkinchi siklda xo'jalik sut ishlab chiqarishga ixtisoslashgan bo'lib, erkak buzoqlar 20-40 kundayoq podadan chiqariladi (boshqa xo'jaliklarga sotiladi). Natijada podadagi sigirlar salmog'i 60-65 %ni tashkil etadi. Bu o'z navbatida buzoq olish va sut ishlab chiqarishni ko'paytiradi.

Tajribaning iqtisodiy samaradorligi tadqiqotning asosiy ko'rsatkichi hisoblanadi. Shu boisdan ishning iqtisodiy samaradorligi. Bunda mahsulot ishlab chiqarish uchun qilingan xarajatlar uning asosida bir sentner semirish yoki tuxumning tannarxi, mahsulotni sotishdan olingan daromad, sof foyda va rentabellik darajasi aniqlandi. Xarajatlarni birinchi navbatda ozuqalar sarfini kamaytirish umumiy xarajatlarni kamaytirishga sabab bo'ladi, buning uchun ozuqalarning sifatli bo'lishi, ya'ni energiya-protein nisbatining me'yorda bo'lishi, ozuqalarning ishtaha bilan yeyishi, uning kam sarflanishini ta'minlaydi. Ikkinchidan duragay sigirlardan foydalanish natijasida har bosh sigirdan ko'proq sut sog'ib olish, har bosh sigirdan olinadigan sut miqdorini ko'paytirishni taqazo etadi.

Iqtisodiy samaradorlikni ko'tarishda arzon yaylov ozuqalardan ko'proq foydalanishni taqozo etadi. Qoramolchilikda don, omixta emlar, shrot, mineral premiks va vitaminli qo'shimchalar muhim o'rin tutadi. Shu boisdan har bir qoramolchilik xo'jaligida kichik yem tayyorlanadigan

korxona bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Chunki, bunday sexda har doim talabdagi yemni tayyorlab berish va uni tarkibini xoxlaganda o'zgartirib turish mumkin.

Chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishda qoramolchilik iqtisodiy jihatdan samarali tarmoq hisoblanadi. Hozirgi davrda ishlab chiqarishni jadal negizga o'tkazish qoramolchilikda ham tez sur'atlarda bilan amalga oshirilmoqda. Iqtisodiy jihatdan musta'qil holda tashkil etilgan qoramolchilikning samaradorligi tez o'smoqda, texnika, texnologiya va ishlab chiqarishning tashkil etish muttasil takomillashib bormoqda.

Har qanday olib borilgan izlanishlar yakuni iqtisodiy ko'rsatgichlar bilan baholanishi zarur. O'tkazilgan tajribaning iqtisodiy samaradorligitni hisoblashda 30 kun mobaynida sog'ib oligan sut miqdori va uning chakkana savdoda sotish bahosi bo'yicha oligan daromad hisoblab chiqiladi. Sigirlarni oziqlantirishdagi, saqlash, mehnat haqi va boshqa harajatlar e'tiborga olib umumiy harajat aniqlanadi va 1 l sutning tannarxi aniqlanadi. Tajribaning iqtisodiy samaradorligi qo'yidagi jadvalda bayon etilgan.

4.2.1 - jadval

Tajribaning iqtisodiy samaradorligi (1 bosh hisobiga)*

№	Ko'rsatgichlar	O'lchov birligi	Guruhlar	
			Nazorat	Tajriba
1	Sog'ib oligan sut	L		
2	1 l sutning sotilish bahosi	So'm		
3	Sutdan olingan daromad	So'm		
4	Ketgan harajat	So'm		
5	1 l sutning tannarxi	So'm		
6	Sof foyda	So'm		
7	Rentabillik darajasi	%		

*Manba: Nurobod tumani Statistika bo'limi ma'lumotlari

Jadval taxlili shuni ko'rsatadiki nazorat guruhidan olingan sof foyda 30 kun mobaynida 34442 so'm bo'lgan bo'lsa, tajriba guruhidan olingan foydaning yuqoriligi nazorat guruhiga nisbatan sog'ib olingan sutning ko'pligi, yog'lilik darajasining yuqoriligi hisobiga va sog'ib olingan sut tarkibining ma'lum darajasida zaruriy elementlar bilan boyiganligi hisobiga sotilish bahosining 25 so'mga ko'pligi bilan bog'liqdir.

5. SIGIRLARNI YAYLOVLARDA BOQISHDA MEHNAT MUHOFAZASINI TASHKIL ETISH.

Mamlakatimizda olib borilayotgan ijtimoiy siyosatning asosiy yo'nalishlaridan biri - ishchi-xizmatchilarning, ayollar va balog'at yoshiga etmagan yoshlarning mehnat sharoitlarini yaxshilashdan iboratdir. Bugungi kunda respublikamiz korxonalarida mehnat qilayotgan ayollar va o'smirlar mehnatini muhofaza qilishga katta ahamiyat berilmokda. Xususan, ularni og'ir va sog'lik uchun zararli ishlardan ozod qilish, qisqartirilgan ish kuni huquqi qonun bilan belgilab qo'yilishi, homiladorlik ta'tili, bola tarbiyasiga beriladigan ta'tilning uch yilgacha uzaytirilishi va boshqa imtiyozlar bunga misol bo'la oladi.

Inson mehnatini muhofaza qilish, bu mehnat jarayonida uning xavfsizligini ta'minlash har bir jamiyatning ustuvor yunalishlaridan biri bulmog'i lozim. Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan qabul qilingan «Inson huquqlari Umumjahon deklaratsiyasida» hayot, erkinlik, mehnat va shaxsiy daxlsizlik masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

Chorvachilik korxonalari hududlarining tozalik holatini yaxshi saqlash, obodonlashtirish, ishlab chiqarish binolarini va xonalarini, sanitariya-texnik qurilmalari (ventilyasiya, isitish, yoritish), sanitariya-maishiy xonalar qurilmalari, shaxsiy himoya vositalaridan foydalanish, mehnat sharoitlarini yaxshilash, ishlab chiqarishdagi zaharlanishlarni hamda kasb kasalliklarini oldini olish, chorvadorlar sog'lig'ini muhofaza qilish, shuningdek mehnatni ilmiy tashkil qilish va ishlab chiqarish estetikasi bilan bog'liq bo'lgan gigiena chora-tadbirlarini ishlab chiqish masalalarini hal qiladi.

Paydo bo'lishi mumkin bo'lgan kasalliklarni oldini olish va ulardan himoyalashda avvalambor ish joyidagi shaxsiy gigiena masalalari asosiy rol o'ynaydi. Agar kishi shaxsiy gigiena qoidalariga amal qilmasa, u o'z oilasida va ishlaydigan jamoada yuqumli kasalliklarning tarqalishiga sababchi bo'lishi mumkin.

Haroratning ruxsat etilgan me'yordan yuqori bo'lishi, kishining tez toliqishiga, yurak-tomir kasalligiga chalinishiga, bosh og'rig'ini paydo bo'lishiga yoki issiq urishiga olib kelishi mumkin. Havo haroratining ko'rsatilgan me'yordan past bo'lishi, kishi tanasidagi issiqlikni yo'qolishini ko'paytiradi va kishilarni harakatini cheklaydi va toliqtiradi. Havoning nisbiy namligi 75 % dan oshmasligi va 30 % dan kam bo'lmasligi kerak. Yuqori harorat ostida havo namligining ortishi natijasida organizmning issiqlik chiqarishi qiyinlashadi, natijada organizm qiziydi. Past harorat esa namlikning ortib ketishi tufayli organizmda issiqlik chiqishini tezlatadi, natijada shamollash kasalligiga chalinish mumkin. Yuqori nisbiy namlik (85%) teri bug'lanishining kamayishiga, juda past nisbiy namlik (20%) nafas olish yo'llari shilliq pardasining qurib qolishiga olib keladi.

Chorvadorlar samarali fa'oliyat ko'rsatishining asosiy mezonlaridan biri bu ish joyidagi havoning tarkibiy qismidir. Tabiiy havo tarkibining asosiy tashkil etuvchisi bo'lmish kislorod gaziga inson organizmi juda seziluvchan. Agarda havoning tarkibida kislorodning miqdori 17 %gacha kamaysa kishilarni nafas olishi va tomirlar urishi tezlashadi, 11-13 %ga tushganda gipoksiya holati va 7-8 %gacha kamayganda o'lim darajasiga olib keladi.

Chorvachilik fermalarida ishchi uskuna va qurilmalardan ish jarayonida ajralib chiqadigan turli zaharli gazlar, harorat ish joyidagi muhitning o'zgarishiga va noqulayliga olib keladi. Shu sababli ish o'rinlarini sanitariya va gigiena talablariga mos holda tashkil etish maqsadida havoni tabiiy yoki mexanikaviy almashinish usullaridan foydalaniladi. Ish joylarida havoning almashinishi ishda samaradorlikni oshirishning va kasbiy kasalliklarni kelib chiqishini oldini olishning muhim omillardan biri hisoblanadi.

Mehnat gigienasini qo'llash ish sharoitlarini yaratish asosida mehnat unumdorligini oshirish, kasb kasalliklarini kamaytirish yoki butunlay yo'q qilish sanitariya-gigiena va davolash profilaktik tadbirlarni ishlab chiqadi.

Ish joyidagi havoda zaharlanmagan chang 10 mg/m^3 dan, kvars changi esa 2 mg/m^3 dan ko'p bo'lmasligi kerak. Xavfli va zararli changlar miqdori me'yoridan

oshgan taqdirda shaxsiy himoya vositalaridan foydalanish orqali himoyalaniş mumkin.

Yer maydonlaridan unumli foydalanishga erishish omillaridan biri yer fondlaiga ekinlarni to'g'ri, ilmiy jihatdan asoslangan ketma- ketlikda joylashtirishni talab etadi. Ming afsuski erdan foydalanishdagi almashlab ekishdek eng muhim agrotexnik tadbir inkor etilmoqda. Pirovardida respublikamizning aksariyat hududlarida erlarning sho'rlanish darajasi va eroziyasi yildan yilga kuchayib ketmoqda. Natijada qishloq xo'jalik mahsulotlari etishtirishga sarflanadigan ishlab chiqarish resurslari me'yoridan ortiqcha xarajat qilinib mahsulot tannarxini asossiz o'sishi oqibatida daromadlar kamayishiga sabab bo'lmoqda, hattoki sho'rlanish oqibatlarini tugatish maqsadida erlarni meliorativ holatini yaxshilashga millard so'mlab mablag' sarflashga majbur bo'lmoqdamiz.

O'zbekiston iqtisodiyotining etakchi tarmog'i hisoblangan qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi, jamiyat bilan tabiat bir biri bilan o'zaro aloqaga kirishadigan soha hisoblanadi. Ming yillar davomida qishloq xo'jaligi tabiatning do'sti deb hisoblab kelingan. U o'zining mohiyatiga ko'ratabiatga juda yaqin bo'lib, ishlab chiqarish jarayonida tabiat kuchlaridan keng foydalanadi va bir qarashda iqtisodiyotning boshqa tarmoqlariga qaraganda tabiatning sof, sog'lom, samarador bo'lishidan kuproq manfaatdor.

Ishlab chiqarish kuchlari uncha taraqqiy etmagan sharoitda qishloq xo'jaligi ko'proq tabiat qonunlariga bo'ysindirishgan bo'ladi va to'g'ri faoliyat ko'rsatganda bu qonunlar bo'zilmaydi. Biroq hozirgi yuz yillikda qisqa vaqt ichida axvol tubdan o'zgardi.

Murakkab va og'ir vaznli mashina texnikalarining qo'llanishi ishlab chiqarishning ximiyalashtirilishi, erlarni melioratsiyalash, ishlab chiqarishning aynan sanoat asosidagi parrandachilik korxonalarining barpo etilishi tabiatni zamonaviy qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchisi oldida juda nochor, zaif axvolga solib qo'ydi.

XULOSALAR

Respublikamiz aholisini sut, go'sht, tuxum va boshqa mahsulotlariga bo'lgan talabini qondirish chorvachilikning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Qishloq xo'jaligi jumladan chorvachilikni rivojlantirish maqsadida Respublika Prezidentining 2006 yil 23 martdagi PQ 308 - sonli "Shaxsiy yordmchi, dehqon va fermer xo'jaliklarida chorva mollarini ko'paytirishni rag'barlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2008 yil 21 apreldagi PQ 842 - sonli "Shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo'jaliklarida chorva mollari ko'paytirishni rag'batlantirishni kuchaytirish hamda chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishni ko'paytirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Respublika Prezidenti I.A.Karimov ko'pgina daliliy va har tomonlama isbot qilingan ma'lumotlarni keltirib, "O'zbekiston qabul qilgan o'ziga xos islohat va modernizatsiya modeli orqali biz o'z oldimizga uzoq va davomli milliy manfaatlarimizni amalga oshirish vazifasini qo'yar ekanmiz, eng avvalo "shok terapiyasi" deb atalgan usullarni bizga chetdan turib joriy etishga qaratilgan urinishlardan, bozor iqtisodiyotini o'zini o'zi tartibga soladi degan o'sha jo'n va aldamchi tasavvurlardan voz kechdik" deb ta'kidlagan.

Chorvachilik xalq ho'jaligining muhim tarmoqlaridan biri bo'lib, aholining is'temol qiladigan sut, go'sht, yog', tuxum, asal kabi oziq - ovqat mahsulotlari bilan engil sanoatni esa jun, teri, mo'yna, par, pat, pilla va boshqa mahsulotlar bilan ta'minlaydi.

Tadqiqotlar asosida quyidagi ilmiy xulosalar olindi:

1. Yaylovlarda mollarni boqish sil, raxit, osteomolyasiya, avitaminoz, oshqozon-ichak yallig'lanishi kabi kasalliklarning oldini olishda asosiy omillardan hisoblanadi.

2. Har xil xo'jalik sharoitida yaratilgan madaniy yaylovlar hayvonlarni yozda saqlashni yaxshilaydi va oziqa bazasini mustahkamlaydi. Shuning uchun ham keyingi yillarda hamma joylarda fermalar atrofida almashlab ekish,

yaylovlarni o'g'itlash, sug'orish, madaniy yaylovlarni ko'paytirish keng yo'lga qo'yilgan.

3. Yoz paytlari hayvonlarni saqlaydigan joylar va jihozlangan lagerlar uchun quruq, baland, janubga qarab qiya, shamoldan pana, suvni yaxshi o'tkazadigan tuproqli va yuqumli kasallik mikrobi bilan ifloslanmagan er tanlanadi.

4. Bahorda hayvonlar dalaga yoki lagerlarga haydalmasdan avval har bari alohida ko'rikdan o'tkaziladi. Bunda oriqlar va kasal hayvonlar ajratilib, profilaktika choralari ko'riladi.

5. Har bir yaylov tipi o'ziga xos ekologik muxit sharoitida tarqalgan bo'lib, ulardan foydalanish xususiyatlari jixatdan ham bir-biridan farq qiladi.

6. Ixtisoslashgan xo'jaliklarida hayvonlarning sog'ligini saqlash, yuqori va sifatli mahsulot olish uchun veterinariya tadbir-choralariga qat'iy rioya qilish kerak.

7. Oziqalarning o'sish fazasining turli davrlarida tarkibidagi to'yimli moddalarning miqdori turlicha bo'lib, bu sog'in sigirlarning sut mahsuldorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

8. Sigirlar saqlanadigan binolarda tabiiy yorug'lik 1:10 - 1:15 va sun'iy yorug'lik 4 - 5 lyuks/m², karbonat angidrid gazining miqdori 0,25 %, havoning almashinishi o'rtacha 80 - 120 m³/soat, har bir sigir uchun yoki har 100 kg tirik vaznga 17 m³/soat, buzoqlarga esa 20 m³/soat bo'lishi kerak.

Olingan xulosalar asosida quyidag ishlab chiqarishga taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Sigirlarning sut mahsuldorligini oshirish uchun ularni yaylovga chiqarishga tayyorlash hamda ser o't yaylovlarni tanlash.

2. Sigirlar uchun yaylov oziqalaridan tuzilgan oziqa ratsioniga etarli bo'lmagan to'yimli moddalarni qo'shimcha ravishda berishni tashkil etish.

3. Sigirlarni sut mahsuldorligini oshirish uchun ularni yaylovda ham to'g'ri saqlash, oziqlantirish va parvarishlashni tavsiya etamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. -T.: O'zbekiston, 2008.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga ilova. Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risidagi Nizom. 05.02. 1999. -№54.
3. O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi matbuot xizmati. Chorvachilik farovanlik manbai. www.agro.uz.
4. Karimov I.A. Jahon moliyaviy - iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. -T.: O'zbekiston, 2009.
5. Karimov. I.A. Bosh maqsadimiz – keng ko'lamli islohotlar va modernizasiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish. O'zbekiston respublikasi Prezidentining 2012 yilda mamlakatimizni ijtimoiy – iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2013 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi maruzasi. // Xalq so'zi. 19.01.2013.
6. Karimov I.A. 2015 yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, modernizasiya va diversifikasiya jarayonlarini davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo'l ochib berish – ustuvor vazifamizdir: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining mamlakatimizni 2014 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2015 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning ustuvor vazifalariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi//Zarafshon gazetasi. 7-8 (22480-22-481). 17.01.2015

7. Abruyev I, Urdushayev X. Ozuqa rasionini optimallashtirish. Uslubiy qo'llanma. - Samarqand, 1997.
8. Abdolnizozov B., M.Ruzmetov. Makkajo'xoring gibrid urug'lari – hosildorlikni oshirishdagi kuchli omil. J.Zooveterinariya, 2013, №9 42 bet
9. Allashov B., S.Jamolov. Xashaki lavlagi urugchiligida yangi agrotexnologiyalar. j.Zooveterinariya, 2013, №10 44-45 betlar
10. Bogdanov G.A. Kormleniye sel'skoxozyaystvennx jivotnx. Uchebnik. M.Agropromizdat, 1999.
11. Bakanov I.N. Kormlenie sel'skoxozyaystvennyx jivotnyx. M.1989.
12. Bakett M. Fermer xujaligini tashkil qilish va boshqarish. –T.: Mehnat, 1998.
13. Berkli Xill. Iqtisodiyotga kirish. –T.: Mehnat, 1998.
14. G'oyipov X.E. Mehnat muxofazasi T. 2000, 50, 132-133 betlar.
15. Jo'rayev F. Qishloq xo'jalik korxonalarida ishlab chiqarishni tashkil etish. Darslik. – T.: Istiqlol, 2004. -343 bet.
16. Isamuxamedov S., Kuchchiev O., Xojaev U., YUsupov B., Tajixanova S., Karimkulova R. Donador oziqalarni tayyorlash texnologiyasi. j. Zooveterinariya, 2013, №6 44 bet
17. Ismoilov A., Murtazayev O. Qishloq xo'jalik iqtisodiyoti. –T.: Moliya, 2005.
18. Kalashnikov A.P. "Chorvachilik oziq normalari va ratsionlari" Toshkent, 1988
19. Maxmudov M.M., Imomov B.SH., Sindorov K., Li P.M., Tuyliyev SH. Qizilqumning so'g'oriladigan maydonlarida yil davomida xashakbop ekinlar etishtirish tajribalari. "Qorako'lchilik va cho'lda oziqa ishlab chiqarish texnologiyasi", Samarkand, 1996 y.
20. Maxmudov M.M., Haydarov Q. Yaylovshunoslik. Toshkent, 2010, 78, 148, 176 betlar
21. Mamatiminov SH.K., 3. Tulaganova, K. Nazirov, YO. Karimova. Qishloq xo'jaligi hayvonlarining oziqlanishdan zararlanishi, mikotoksikozlar J.Zooveterinariya, 2013, №12 32 bet

22. Nosirov U.N. “Qoramolchilik” Toshkent – 2001, 242 bet
23. Sanayev G'.N. Fermer xo'jaliklarida sut-gusht mahsulotlari xarajatlarini hisobga olish, ularning tannarxni hisoblashgini takomillashtirish. Monografiya. – T.: Fan, 2007. - 119 bet.
24. Sindorov Q., A.Bobaeva, SH.Sindorov, Cho'l hududlari sug'oriladigan maydonlarida ba'zi oziqabop o'simlik turlarining hosildorlik ko'rsatgichlari. j.Zooveterinariya, 2013, №9 44-45 bet
25. Sindorov Q., A.Bobaeva, SH.Sindorov. Cho'l hududlari sug'oriladigan maydonlarida ba'zi oziqabop o'simlik turlarining hosildorlik ko'rsatgichlari. j.Zooveterinariya, 2013, №9 44-45 bet
26. Xakimov R. O'zbekiston Respublikasi chorvachilik mahsulotlari bozori va tarmoqda iqtisodiy isloxlarni chuqurlashtirish yo'nalishlari. Monografiya.
27. Xoshimov M Ye, Tansibayev B.M. Qishloq xo'jalik chorva mollarini oziqlantirish. –T.: O'zbekiston, 2001.
28. Egamberdiev R., Eshchanov R. 2004. “Ekologiya asoslari”. Toshkent. O'zbekiston nashr., 2004. 61, 62, 172 - 173 betlar.
29. Yaxyaev B., Q.Haydarov, I.Qo'ziev. Mineral moddalarsiz ratsion to'liq qiymatliligi ta'minlanmaydi. j.Zooveterinariya, 2013, №3 41-42 betlar
30. Internet saytlari:
- 30.1. <http://www.lex.uz> - qonun hujjatlari sayti
- 30.2. <http://www.agro.uz> - Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi
- 30.3. <http://www.edu.uz> - Oliy ta'lim sayti
- 30.4. <http://www.uza.uz> - O'zbekiston axborot agentligi sayti
- 30.5. <http://www.yu.uzreport.uz> – biznes hisobot portali
- 30.6. <http://www.uz.bir.uz> - Biznes informasion resurslar sayti
- 30.7. <http://www.gov.uz> – O'zbekiston respublikasi xukumat portali
- 30.8. <http://www.livestock.uz> – O'zbekiston chorvachiligi sayti